جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 27-sentyabr
№ 40(40)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

ADIBDAN QOLGAN ERTAKLAR MANZILI



“...Bosqon, qisqichlar, bolg‘alar, uy-ro‘zg‘or anjomlarini, tig‘li asboblarni o‘tkirlash uchun ishlatiladigan uskuna-charx, choynak, suv saqlanadigan idishlar va shu kabi ro‘zg‘or buyumlari...
Bu eksponatlarning har biri “o‘tmishdan ertak” so‘zlaydi...”

(5-sahifada o‘qing).

DOLZARB MAVZU



TURKIY MEROS VA TURIZM

MADANIY MEROS – TURIZM KO‘ZGUSIDA

Turkiy dunyo mushtarak tarixiy ildizlar, til an’analari va madaniy qadriyatlari bilan bog‘langan ko‘plab davlat va xalqlarni birlashtirgan noyob geosiyosiy mintaqadir. Bu mintaqaga kirgan mamlakatlar milliy o‘ziga xosligi va tarixiy o‘z taqdirini belgilashda muhim rol o‘ynaydigan boy madaniy merosga ega. Turkiy dunyoning global ahamiyati uning Yevropa va Osiyoni bog‘lovchi geosiyosiy mavqeyi, shuningdek, Markaziy Osiyo, Kavkaz va Sharqiy Yevropada barqarorlik va hamkorlikni ta’minlashdagi roli tufayli ortib bormoqda.

Iqtisodiy taraqqiyot va xalqaro diplomatiyaning muhim vositasi bo‘lgan turizm turkiy dunyo mamlakatlarida tobora muhim rol o‘ynamoqda. Globallashuv va madaniy-tarixiy yo‘nalishlarga qiziqish kuchayayotgan bir sharoitda turkiy davlatlar o‘zining noyob madaniy merosi asosida turizm sohasini rivojlantirishga intilmoqda. Bu nafaqat iqtisodiyotni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va sarmoya jalb etish, balki xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash imkonini ham vujudga keltirmoqda. Turizm sohasidagi o‘zaro hamkorlik xalqaro madaniyatlararo almashinuvni rivojlantirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilish muhim jihatdir. Chunki turizm oqimlaridan tarixiy obidalar va an’analarni targ‘ib qilish, shuningdek, madaniy xilma-xillikni saqlash uchun foydalanish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, turizm turkiy davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga yordam beruvchi madaniy diplomatiyaning samarali vositasiga aylanishi mumkin.

(Davomi 2-sahifada).

BUGUNNING SHE’RI

USTOZLARGA BAG‘ISHLOV

Assalom, ey muhtaram, ey mo‘tabar ustozlar,
Mehringiz ota-ona mehri qadar, ustozlar.
Istiqloldan ko‘rk olgan bilim koshonasida
Bergaysiz kelajakdan nurli xabar, ustozlar.
Ey aziz, ey muhtaram, ey mo‘tabar ustozlar.

Ignada quduq qazmoq oson bo‘libdi qachon?
Valekin shogirdlarning kamolini ko‘rgan on
Bormikan bu dunyoda sizday baxtiyor inson –
Unutib zahmatlarni, boqasiz mag‘rur, shodon,
Ey aziz, ey muhtaram, ey mo‘tabar ustozlar.

Fidoyi mehnat ila bilmay tinim, chekib jon,
Bu muqaddas Vatanda siz topdingiz sharaf-shon.
Sizlar bor – yo‘llar ravon, sizlar bor – qo‘lda imkon,
Sizlar bor – dillar ravshan, hayotimiz nurafshon,
Ey aziz, ey muhtaram, ey mo‘tabar ustozlar.

Muallim demak asli, ezgulikning nomi bu,
Minnatdor shogirdlarning ardoqli kalomi bu,
Ma’rifat istar elning samimiy salomi bu,
Barkamol avlodlarning mangu ehtiromi bu –
Ey aziz, ey muhtaram, ey mo‘tabar ustozlar.

Ikrom ISKANDAR



1-OKTYABR – USTOZ VA MURABBIYLAR KUNI

SHARAFLI MAQOM



Abdumannon Muhammad olgan surat.

Inson zoti qaysi zamon va makonda yashamasin, qaysi kasbni tanlamasin, har vaqt ustozga muhtoj bo‘ladi. Haqiqiy ustozning maqom-martabasi bag‘oyat yuksak, unda ibratga loyiq fazilatlar mujassam bo‘lmog‘i darkor. Insonning pokiza qalbini bunyod qilish bilan mashg‘ul bo‘ladigan fidoyi muallimga ehtirom ko‘rsatish xususida hazrat Navoiy aytadiki:

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado, oning haqin yuz ganj ila.

Ustozlik maqom-martabasi ana shunday yuksak va ulug‘vor. Zero, ustozining ko‘nglini og‘ritgan shogird o‘smaydi, hayotda o‘z o‘rnini topishi qiyin kechadi. Biror soat dars bergan muallimning norizo bo‘lib, qosh chimirishi shogird uchun qimmatga tushishi aniq.


“Muallim” so‘zi negizida ilm va olimlik tushunchasi mujassamdir. Chin muallim mustaqil fikr egasi bo‘ladi. Shuning uchun ustozlik martabasi muallimning o‘z ilmiga amal qilishi bilan tugal va go‘zal bo‘ladi. O‘quvchiga, talabaga juda bama’ni, foydali hikmatlarni aytib, ma’ruzalar o‘qiyotgan ziyoli odam, eng avvalo, aytgan so‘ziga o‘zi amal qilishi lozim. Aks holda murabbiy so‘zi shogirdlariga zarracha ta’sir qilmaydi.

Rivoyatga ko‘ra, o‘tgan zamonlarda bir kampir nabirasini yetaklab donishmand huzuriga boribdi. Bolajonning har kuni ko‘p xurmo yeb qo‘yayotganidan shikoyat qilibdi: “Bolamga nasihat qilsangiz”. Ulug‘ zot umid bilan ostonasidan kirgan kampirga qirq kundan keyin kelishlarini aytib iziga qaytaribdi. Kampir nabirasi bilan mahzun uyiga qaytibdi. Oradan aytilgan muddat o‘tgach, yana donishmand huzurida paydo bo‘libdi. Donishmand chol bolakayga zarur nasihatlar, tanbehlar, maslahatlar beribdi. Kampirning yuzi yorishibdi, xursand bo‘libdi. Ammo ketar mahali avvalgi kelganlarida shu nasihatlarni nima uchun darhol ayta qolmaganining sababini so‘rabdi. Shunda donishmand: “O‘zim ham juda ko‘p xurmo yer edim. Aytilgan muddat oralig‘ida nafsimni tiyib yurdim. Nasihat aytish uchun ma’nan haqli bo‘ldim”, degan ekan. Ustozlikka, ta’lim va tarbiya berishga ma’nan haqli bo‘lish ortida to‘g‘rilik, haqgo‘ylik, o‘z so‘ziga amal qilishdek muazzam fazilatlar mujassam.

Sinfxonalaridagi muallimlar o‘z tashqi ko‘rinishlariga naqadar diqqat qaratishsa, ma’naviy dunyosiga, ichkarisiga, nutqiga ham shu darajada e’tibor berishlari lozim. Oppoq libos kiygan muallimning yuragi qora bo‘lsa, bu illat uning o‘quvchilari ruhiyatiga ko‘chadi.

(Davomi 3-sahifada).

MILLAT FIDOYILARI



MUALLIM SHAKURIY IZTIROBLARI

Asrimiz boshidagi Samarqand muhitining tarixi qiziqarli, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy iqlimi g‘oyatda fayzlidir. Zotan, “Turkiston ma’rifatchilarining otasi” nomini olgan Mahmudxo‘ja Behbudiy hazratlari ayni shu zamon va zamin farzandidir. Uning tegrasida yig‘ilgan ziyolilar esa Turkiston o‘lkasida qudratli ma’rifiy harakatlarni boshlab bergan atoqli shaxslar edi.

Shulardan biri mashhur jadid muallimi Abduqodir Shakuriydir.

Abduqodir Shakuriy Samarqandning Rajabamin qishlog‘ida 1901-yili birinchi yangi usuldagi maktab ochgan shaxs. Bu yangilik ham biryoqlama qarashli yerli kimsalar, ham chor ma’murlari tomonidan juda ko‘p qarshiliklarga uchragan.


(Davomi 7-sahifada).

TADQIQ

KITOBGA OTILGAN O‘Q

“O‘tkan kunlar” romani bunyod bo‘lganiga bir asr to‘ldi. Alloma buvamizning bu asari xususidagi yoqimli e’tiroflar, yangi davr qodiriyshunoslarining talqin va tahlillari, ayni damda xalq orasidagi g‘aroyib xotiralar ham hamon og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotir.

Tarix fanlari doktori, professor Abdulaziz Muhammadkarimov shunday hikoya qilgan edi: “1956-yili Intelligensiyaning ikkinchi qurultoyida Nuriddin Akramovich Muhiddinov o‘z ma’ruzalarida Abdulla Qodiriyni oqlash, asarlarini qayta nashr etish haqida gapirgandi. Men o‘sha paytda Navoiy ko‘chasidagi kitob do‘konida sotuvchi bo‘lib ishlardim. Yonimga kelib: “O‘tkan kunlar” kitobi qachon chiqadi?” deb so‘rovchilar ko‘payib ketdi.



(Davomi 3-sahifada).

TURKIY MEROS VA TURIZM



Nurislom TO‘XLIYEV,
O‘zFA akademigi,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori

Boshlanishi 1-sahifada.

Turkiy xalqlar O‘rta Osiyodan Kichik Osiyo, Sharqiy Yevropa va Sibirgacha bo‘lgan hududlarda istiqomat qiluvchi ulkan etnik va madaniy guruhdir. Ularning kelib chiqishi qadimgi turkiyzabon qabilalarga borib taqaladi, ildizlari O‘rta Osiyo dashtlari bilan bog‘liq. VI asrda hozirgi Qozog‘iston va Mo‘g‘uliston hududida ilk Turk xoqonligi davlati tashkil topdi va bu turkiy o‘zlikni shakllantirishda muhim bosqich bo‘ldi. Ushbu davlatning qulashi va qabilalarning keyingi ko‘chishi turkiyzabon aholining keng hududlarga tarqalishiga olib keldi. Bu esa ularning madaniy tabaqalanishiga hissa qo‘shdi. Biroq ularni birlashtiruvchi bir qator umumiy elementlar hozirgi kungacha saqlanib qoldi.

Turkiy qabilalar yuqori harakatchanlikka ega edi. Ular turli xalqlar bilan faol aloqada bo‘lib, madaniy elementlarning o‘zaro kirib borishiga sezilarli hissa qo‘shgan, lekin ayni paytda an’anaviy turkiy urf-odatlar va e’tiqodlarning barqarorligini saqlab qolgan.

Turkiy xalqlarning til ildizlari mushtarakligi ulardagi o‘ziga xoslik shakllanishiga xizmat qilgan. Oltoy tillari oilasiga kiruvchi turkiy tillar hozirgi kungacha turli xalqlar o‘rtasida o‘zaro tushunarlilikni saqlab kelmoqda. Turkiy tillarning umumiy leksik va grammatik asosi yagona etnomadaniy makonga mansublikni anglashni qo‘llab-quvvatlovchi madaniy ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi.

Qardosh xalqlarning madaniy merosi mahalliy an’analar va qo‘shni sivilizatsiyalar ta’sirini o‘zida aks ettiruvchi me’moriy yodgorliklar hamda tarixiy obidalarga boy. Mamlakatimizning qadimiy shaharlarida joylashgan obidalar, xususan, Samarqanddagi Registon ansambli, Amir Temur maqbarasi, Shohi Zinda me’moriy majmuasi, Bibixonim jome masjidi, Ulug‘bek rasadxonasi, Buxoro va Xivadagi o‘nlab me’moriy inshootlarni ana shunday yodgorliklarga misol qilib keltirish mumkin. Qozog‘istondagi Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasi turkiy me’moriy merosning eng yirik obyektlaridan biri hisoblanadi. XIV asrda sohibqiron Amir Temur buyrug‘i bilan qurilgan bu maqbara Markaziy Osiyodagi eng muhim diniy va madaniy markazlardan biriga aylandi. U nafaqat islom me’morchiligi yodgorligi, balki turkiy xalqlarning an’analari va madaniy qadriyatlarini ham o‘zida aks ettiradi.

Buyuk ipak yo‘li bo‘yida joylashgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz kabi qadimiy shaharlar ham turkiy xalqlarning madaniy va savdo hayotida muhim o‘rin tutgan. Bu shaharlar Sharq va G‘arb o‘rtasida tovar, g‘oya va bilim almashinuvining asosiy markazlari bo‘lib, turklar o‘rtasida madaniyat va ilm-fan rivojiga xizmat qilgan. Madrasa, masjid va karvonsaroy kabi me’moriy yodgorliklar turkiy va islom madaniyati unsurlarining sintezini ifodalaydi. Turizmda madaniy meros segmentidan foydalanishning ahamiyati va xususiyati shundaki, unda ruhiy-ma’naviy rekreatsiyaning o‘rni yuqori bo‘ladi. Bu jihatdan u ziyorat turizmi yo‘nalishiga ancha yaqindir.

Turkiy xalqlar madaniy merosining nomoddiy jihatlariga folklor, musiqa, hunarmandchilik va an’analar kiradi. Bunga yorqin misol sifatida turkiy qabilalarning o‘z mustaqilligi uchun kurashi bilan bog‘liq tarixiy voqealar tasvirlangan o‘zbek xalqining “Alpomish”, qirg‘iz xalqining “Manas” dostonini keltirish mumkin. Turkiylarning musiqa an’analari ham e’tiborga loyiqdir. Chunonchi, azaldan xalq musiqasida keng qo‘llanilgan qo‘biz, do‘mbira kabi an’anaviy cholg‘u asboblarining ko‘pchiligi hozirgi kungacha yetib kelgan.

Bu xalqlarning moddiy madaniyatida hunarmandchilik muhim o‘rin tutadi. Ajdodlarimiz o‘z hayotining ajralmas qismi bo‘lgan jun, teri va metalldan turli mahsulotlar yasaydi. Mashhur turkiy gilam va kashtalar boy bezak an’analarini namoyish etadi.

Barcha turkiy xalqlarning madaniy merosini bir qator umumiy xususiyatlar birlashtiradi. Jumladan, me’morchilik sohasida atrof-muhit bilan bog‘liqlikni aks ettiruvchi tabiiy materiallardan foydalanish, ko‘chmanchilar hayoti va tabiat hodisalari bilan bog‘liq ramziylik ustunlik qiladi. Turkiy xalqlarning an’anaviy gastronomiyasida go‘sht va sut mahsulotlariga asoslangan taomlar anchagina.

Turkiy xalqlarda qadimdan yangi yil sifatida nishonlab kelingan Navro‘z kabi milliy bayram ham umumiy madaniy an’analarni o‘zida ifodalaydi. Tabiatning yangilanishi ramzi bo‘lgan bu ayyom aksariyat turkiy xalqlar uchun muhim voqea hisoblanadi.

Biroq geografik joylashuv va tarixiy ta’sirlar tufayli mintaqaviy farqlar ham mavjud. Masalan, Markaziy Osiyoda yashaydigan turkiy xalqlarga fors va xitoy madaniyati sezilarli darajada ta’sir qilgan bo‘lsa, Onado‘lidagi turkiylar yunon, Vizantiya va arab sivilizatsiyalari bilan aloqada bo‘lgan.

Demak, turkiy madaniy meros – qardosh xalqlarni umumiy madaniy unsurlar, til va tarix orqali birlashtiruvchi, shu bilan birga, har bir millatning o‘ziga xos xususiyatlarini saqlaydigan boy va ko‘p qatlamli an’anadir. Ushbu merosni asrab-avaylash madaniy turizmni rivojlantirish va turkiy dunyo mamlakatlari o‘rtasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlashning asosiy omili hisoblanadi.



MADANIY MEROS VA TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI

Turkiya, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Ozarbayjon va boshqa turkiy mamlakatlar iqtisodiyotida turizm muhim o‘rin tutadi. Boy madaniy-tarixiy merosga, noyob tabiiy resurslarga ega bu davlatlar turizmga o‘z iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashning muhim tarmog‘i sifatida qaraydi.

Turkiya turizm industriyasini rivojlantirishda turkiy davlatlar orasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Mamlakat har yili so‘lim kurortlari, tarixiy obidalari va madaniy tadbirlari tufayli millionlab sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi. Turizm sohasi ushbu mamlakat yalpi ichki mahsulotining salmoqli qismini tashkil etadi hamda chet el sarmoyasi va yangi ish o‘rinlari yaratish manbayi hisoblanadi. Nihoyatda boy tarixiy merosga ega bo‘lgan O‘zbekiston madaniy-tarixiy turizmni faol rivojlantirib, xorijlik sayyohlarni qadimiy va navqiron shaharlariga jalb qilmoqda. Qozog‘iston va Ozarbayjon ham ekoturizm va madaniy turizmni rivojlantirishga, mavjud tabiiy va tarixiy resurslari orqali sayyohlar oqimini ko‘paytirishga e’tibor qaratmoqda.

Bu mamlakatlarda turizm sohasining rivojlanish dinamikasi davlat dasturlari va tashabbuslari bilan qo‘llab-quvvatlanayotgan barqaror o‘sishni ko‘rsatmoqda. Infratuzilmaga investitsiyalar kiritish, xalqaro marketing kampaniyalari va transportdan foydalanish imkoniyatini yaxshilash ushbu davlatlarda erishilayotgan muvaffaqiyatlarning asosiy omillari hisoblanadi. Turk dunyosi mamlakatlarida sayyohlik yo‘nalishlarini kengaytirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Bu esa ko‘proq sayyohlarni jalb etish va iqtisodiyotni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Madaniy turizm turkiy mamlakatlarning turizm strategiyasida markaziy o‘rinni egallaydi. Tarixiy-madaniy yo‘nalishlar, etnografik va ekologik turizm xalqaro sayyohlarni jalb qilishning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi. Qadimiy Buyuk Ipak yo‘li bo‘yida joylashgan Qozog‘iston, O‘zbekiston, Turkmaniston va mintaqaning boshqa davlatlarida turizm sohasini rivojlantirish uchun noyob imkoniyatlar mavjud. Mazkur hududda bugungi kungacha saqlanib qolgan qadimiy shaharlar, madaniy yodgorliklar va hunarmandchilik an’analari dunyo sayyohlarida katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Ko‘chmanchi xalqlar yashaydigan hududlarda ham etnografik turizm rivojlanmoqda. Xorijlik mehmonlar u yerlarda turkiy xalqlarning turmush tarzi, hunarmandchiligi va urf-odatlari bilan yaqindan tanishishlari mumkin. Qozog‘iston va boshqa mamlakatlar noyob tabiiy landshaftlarga asoslangan ekoturizmni qo‘llab-quvvatlash orqali sayyohlarga o‘zlarining milliy bog‘lari, tog‘ tizmalari va dashtlari orqali turli yo‘nalishlarini taklif etmoqda.

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ilgari surilayotgan bir qator xalqaro dastur va tashabbuslar madaniy turizmni jahon miqyosida rivojlantirishga yordam beradi. Qo‘shma loyihalar umumiy sayyohlik yo‘nalishlarni yaratish, Navro‘z kabi milliy bayramlarni ommalashtirish, turkiy xalqlarning madaniy merosini xalqaro miqyosda targ‘ib qilishga mo‘ljallangan madaniy festivallar tashkil etishni o‘z ichiga oladi. Bunday festivallarga yaqqol misol sifatida, YUNESKOning Nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan etnik sport turlari bo‘yicha xalqaro sport musobaqalarini keltirish mumkin.

Turizm, ayniqsa, transport infratuzilmasini rivojlantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali turkiy dunyo mamlakatlari iqtisodiy integratsiyasiga hissa qo‘shadi. Aeroportlar, temir yo‘llar va avtomobil yo‘llariga sarmoya kiritish mamlakatlar o‘rtasidagi transport aloqalarini yaxshilashga yordam beradi. Turistlarning sayohatini osonlashtiradi va ularning oqimini oshiradi. Masalan, Turkiya, Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasidagi havo aloqalarining yaxshilangani so‘nggi yillarda sayyohlar sonining o‘sishiga yordam berdi.

Ekoturizm va etnografik turizm rivojlanayotgan yirik shaharlarda ham, qishloq joylarida ham sezilarli miqdorda ish o‘rinlari paydo bo‘ladi. Mehmonxona infratuzilmasi, restoran va sayyohlik xizmatlarining rivojlanishi mahalliy iqtisodiyotning yuksalishiga xizmat qilmoqda va aholi turmush darajasini oshirmoqda. Bundan tashqari, sayyohlik loyihalarga xorijiy investorlarni jalb etish infratuzilmani modernizatsiya qilishga ham sabab bo‘lmoqda.

Turizm sohasida transchegaraviy hamkorlikning kuchayishi turkiy dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi xalqaro aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Umumiy sayyohlik yo‘nalishlarini yaratish, qo‘shma loyihalarni ilgari surish va turizm sohasida tajriba almashish mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy hamkorlikni yaxshilashi mumkin. Bu jarayonning muhim elementi sifatida xalqaro sayyohlik forumlari va konferensiyalari tashkil etilib, ularda sohani rivojlantirish istiqbollari, uning jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari muhokama qilinadi.

Shunday qilib, turizm nafaqat turkiy dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga hissa qo‘shmoqda, balki dunyodagi boshqa davlatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirishda ham muhim vosita bo‘lmoqda. Turizm industriyasini rivojlantirish bilan qo‘llab-quvvatlangan madaniy meros qardosh xalqlar o‘rtasida muloqot, fikr almashish va o‘zaro tushunish platformasini yaratishga xizmat qilmoqda.

Turkiy dunyo mamlakatlari o‘rtasida turizm sohasida hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy mexanizmlardan biri bu – Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) hisoblanadi. Turkiy mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqalarni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan ushbu tuzilma turizm orqali madaniy hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan loyihalarni faol ravishda ilgari suradi. Madaniy turizmni kuchaytirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish TDT faoliyatining muhim qismi bo‘lib, tashkilotga a’zo davlatlar shu orqali xalqaro maydonda umumiy madaniy va tarixiy qadriyatlar targ‘ibotida hamkorlik qiladi.

TDT doirasidagi qo‘shma dasturlar turkiy dunyoning tarixiy va madaniy yodgorliklarini qamrab olgan umumiy turistik yo‘nalishlarni yaratishga qaratilgan. Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab Samarqand, Buxoro, Sheki va Kayseriy kabi muhim tarixiy shaharlarni o‘z ichiga olgan yo‘nalishlar bunga yorqin misoldir. Ushbu marshrutlar nafaqat sayyohlarni jalb qilish, balki TDTga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy hamkorlikni ham qo‘llab-quvvatlaydi. Madaniy almashuvlar doirasida turkiy xalqlarning an’anaviy hunarmandchiligi, musiqasi, folklor va gastronomiyasini namoyish etish, mushtarak merosni targ‘ib qilish va xalqlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan festivallar muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

Turkiy mamlakatlarning asosiy obidalari va tarixiy joylarini qamrab oluvchi qo‘shma sayyohlik marshrutlarini yaratish istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Bunday yo‘nalishlar madaniy merosni asrab-avaylash bilan birga sayyohlar va infratuzilmaga sarmoya kiritish orqali mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni ham mustahkamlaydi. Birgina misol: Markaziy Osiyo, Turkiya va Ozarbayjonning tarixiy shaharlarini o‘z ichiga olgan “Buyuk Ipak yo‘li” loyihasi transchegaraviy turizmni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro festivallar, madaniy almashinuv va ko‘rgazmalar kabi qo‘shma turizm tadbirlari o‘zaro hamjihatlik va madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, turizm turkiy xalqlarning tili va madaniy xususiyatlarini keng ommaga targ‘ib etishda ham muhim rol o‘ynaydi. Mintaqaning tarixi, tili va madaniyatini o‘rganishni o‘z ichiga olgan turizm dasturlari noyob madaniy an’analarni saqlashga yordam beradi. Bunday dasturlar turkiy dunyo an’analari va merosi bilan chuqur tanishishga qaratilgan madaniy turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Quyida Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlardagi mashhur sayyohlik yo‘nalishlar e’tiboringizga havola etiladi:

TURKIYA
Antaliya, Istanbul, Izmir, Kappadokiya

OZARBAYJON
Boku, Sheki, Gabala

QOZOG‘ISTON
Olmaota, Ostona, Chimkent, Boykonur

QIRG‘IZISTON
Bishkek, Issiq-ko‘l

O‘ZBEKISTON
Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva

Darhaqiqat, turkiy dunyoda turizm nafaqat iqtisodiy, balki madaniy vazifani ham bajarib, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga hissa qo‘shmoqda. Infratuzilma va madaniy loyihalar sohasidagi qo‘shma tashabbuslar nafaqat sayyohlar oqimini oshirish, balki turkiy madaniy merosni jahon miqyosida targ‘ib qilishning muhim elementi bo‘lib xizmat qilmoqda.

INFRATUZILMA VA LOGISTIKA – YUTUQLAR OMILI

Turkiy mamlakatlarda turizmni rivojlantirish yo‘lidagi asosiy to‘siqlardan biri zamonaviy infratuzilmaning hali yetarli darajada rivojlanmagani bilan bog‘liq. Qulay turizm rivojlangan mehmonxonalar tarmog‘i, yo‘llar, jamoat transporti va turistik obyektlarni talab qiladi. Biroq mintaqaning bir qator davlatlarida bu borada jiddiy kamchiliklar mavjud. Masalan, Markaziy Osiyoning muhim madaniy va tabiiy obidalar joylashgan ayrim hududlarida sayyohlar zamonaviy mehmonxonalar yetishmasligi, shuningdek, tarixiy obidalar va qo‘riqxonalardan foydalanish imkoniyatining pastligi kabi muammolarga duch kelishmoqda. Bu esa mintaqaning xorijlik sayyohlar uchun jozibadorligiga soya solishi mumkin. Ayniqsa, Yevropa yoki Osiyodagi mashhur sayyohlik markazlari yo‘nalishlar bilan raqobatda bu hol yaqqol bilinadi.

Bundan tashqari, logistika va transportning qulayligi muammosi ham mavjud. Turk dunyosining ko‘plab shaharlari o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri havo aloqalarining yo‘qligi turistlarning sayohatini qiyinlashtiradi. Masalan, turkiy mamlakatlarning ayrim poytaxtlari o‘rtasida sayohat qilish uchun turistlar uchinchi davlatlarga pul o‘tkazishi kerak. Bu esa sayohatning vaqti va tannarxini oshiradi. Cheklangan poyezd va avtobus yo‘nalishlari ham mintaqa ichida sayohatni qiyinlashtiradi.

Viza rejimlari ham turistlar oqimining o‘sishiga to‘siq bo‘lib qolmoqda. Turk dunyosi davlatlari so‘nggi yillarda viza rasmiyatchiligini soddalashtirish choralarini ko‘rgan bo‘lsada, viza talablari ko‘plab sayyohlar uchun kutilmagan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, butun mintaqa bo‘ylab sayohat qilish uchun yagona viza rejimining yo‘qligi birato‘la bir nechta mamlakatlarga tashrif buyurishni istagan sayyohlar uchun jozibadorlikni pasaytiradi.

RAQOBATGA TAYYORMIZMI?

Boshqa turistik yo‘nalishlar bilan jiddiy raqobatga e’tibor qaratish turkiy davlatlar uchun muhim masaladir. Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo kabi dunyoning ko‘plab mintaqalari har yili millionlab sayyohlarni jalb etib, jahon turizm bozorida o‘z o‘rnini egallagan. Bu hududlar yaxshi rivojlangan infratuzilmaga, barqaror transport tizimlariga va faol marketing kompaniyalariga ega. Ayni jihatlar ularni turistlar uchun ancha jozibador qiladi.

Turkiy davlatlar o‘zini xalqaro bozorda targ‘ib qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Chunki ularning aksariyati sayyohlik yo‘nalishi sifatida tan olinadigan brendga ega emas. Masalan, Qozog‘iston yoki O‘zbekiston kabi Markaziy Osiyo davlatlari, garchi tarixiy va madaniy merosga boy bo‘lsa-da, xalqaro sayyohlar uchun Fransiya, Italiya yoki Tailand kabi mashhur sayyohlik markazlariga qaraganda kamroq tanish. Natijada turkiy dunyoning ko‘plab davlatlari rivojlangan turizm bozorlari bilan emas, balki Afrika yoki Lotin Amerikasidagi yangi yo‘nalishlar bilan raqobatlashishga majbur bo‘lmoqda.

MADANIY MEROSNI SAQLASH

Turkiy davlatlar oldidagi eng jiddiy muammolardan biri turizmning o‘sib borayotgani sharoitida ularning madaniy merosini muhofaza qilish va asrab-avaylash bilan bog‘liq. Turizm har qanday mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli iqtisodiy daromad keltirishi mumkin. Lekin ayni paytda madaniy va tabiiy resurslarga bosim ham o‘tkazadi. Ko‘pgina tarixiy obidalar va madaniy meros obyektlari ommaviy turizmning salbiy ta’siridan aziyat chekayotgani ham sir emas.

Muammo shundaki, qadimiy Samarqand, Buxoro kabi shaharlar yoki Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi singari madaniy obidalarni muhofaza qilish va saqlash uchun katta kuch talab etiladi. Yodgorliklarni saqlash va tiklash uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi, ayniqsa, noqulay iqlim sharoitida va sayyohlar oqimining ko‘payishi ularning asta-sekin vayron bo‘lishiga olib keladi.

Bundan tashqari, turkiy dunyo mamlakatlarida ekologik va madaniy jihatlarni hisobga olgan holda barqaror turizmni yaratish zarurati mavjud. Bu, ayniqsa, noyob tabiiy landshaft va ekotizimlarga ega bo‘lgan, ommaviy turizm atrof-muhitning buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan hududlar uchun juda muhimdir. Masalan, Qozog‘iston yoki Qirg‘izistonning tog‘li hududlarida antropogen ta’sirni cheklash choralari ko‘rilmasa, turistlar sonining ko‘payishi mintaqa ekologiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Turizmning barqaror rivojlanishi infratuzilmani rivojlantirish hamda tabiiy va madaniy obyektlarni muhofaza qilishni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan turizm sohasini rivojlantirish va bu merosni kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan milliy dasturlar va xalqaro tashabbuslarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, turkiy mamlakatlarda turizmni rivojlantirishda bir qator yechimini kutayotgan masalalar borligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Ushbu muammolarni hal qilish kompleks yondashuvni, jumladan, infratuzilmaga faol sarmoya kiritishni, xalqaro rag‘batlantirishni va turizmni barqaror rivojlantirish choralarini ko‘rishni talab qiladi.

SHARAFLI MAQOM

Boshlanishi 1-sahifada.

Muallim tabiatini olimlik, pokizalik, ulug‘vorlik, to‘g‘rilik, adolat va xolislik kabi bebaho fazilatlar bezatadi.

Xalq ta’biricha, guruch kurmaksiz bo‘lmas. To‘g‘risi, bugungi ijtimoiy hayotda, xususan, muallimlar orasida o‘z aytayotgan so‘ziga teskari ishlar qilib yurganlari topiladi. Sinfxonasida juda ta’sirchan she’rlar o‘qiydi, aforizmlarni yod aytadi, ta’lim-tarbiyadan, olijanoblikdan ma’ruzalar qiladi. O‘zi esa hayotda, jamoatda, oilasida aynan aytganlariga amal qilmaydi.

Bunday vaziyatda ustozning oydin siymosi xira tortadi, so‘zidan quvvat ketadi. Agar ustoz aldamchi bo‘lsa, kelajakda shu sinfdan yolg‘onchilik bilan kun ko‘radigan muttahamlar guruhi yetishib chiqadi. Bunday nadomatlar marazini davolash uchun asrlar kamlik qiladi.

Jamiyatda muallimning o‘rni bag‘oyat katta. Chunki yosh bola oilasidan ham ko‘ra maktabda olgan tarbiyasini o‘z hayotiga tatbiq etadi. Insonning ruhan yemirilishi, pallabinligi, ma’naviy bulg‘anishi ustoz ko‘rmaganlik oqibatida yuzaga keladi. Biror kasb-korida, hunarida ustozi yo‘rig‘ida yurmagan odamning yo‘l boshlovchisi shayton bo‘lar ekan. Shaytoniy vasvasa – yomon. Qora bulut quyosh nurlarini to‘sganidek, xurofot va bid’at haqiqat yog‘dusini xiralashtiradi. Oydin tushunchalar rangi qorayadi. Tiniq fikrlar loyqalanadi. Siniq kosa chegalab butlansa ham, avvalgidek jaranglamaydi.

> **Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki: maktablar taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning durdonasidur...**

Oddiy odamlarni jaholat botqog‘idan haqiqat nurlari tomon yetaklagan muallimlarning amaliy xizmatlari tahsinga loyiq, nomlari abadiylikka daxldordir.

Yaqin tarixga, XX asrning boshlariga nazar tashlaymiz. Tish-tirnog‘i bilan inson ma’naviyatini changallab olgan jaholat, ilmsizlikdan qutulishga jidd-u jahd qilgan jadidlar ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Ular yoshlardan umid qildi. Yoshlarning fikriy va ruhiy tarbiyasi bilan shug‘ullanishdi. Zero, ta’limdagi islohotlar qalbni, fikrni yangilaydi. Jadidlar g‘aflatda yotgan Turkiston ahlini ilm-ma’rifatga, madaniyatga, haqqoniyatga, dunyo tamadduni bilan bo‘ylashmoqqa chorladi. “Achchiq bo‘lsa ham haqiqatni so‘zla” hadisini o‘zi uchun shior qilib olgan Turkiston jadidlari rahnamosi mufti Mahmudxo‘ja Behbudiyning alamli va umidli ovozi keladi asr qa’ridan: “Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki: maktablar taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning durdonasidur”. Taraqqiyga chorlov bor bunda. Jadidlar maktablarda zamoncha ilm oladigan yoshlarning kelgusidagi kuch va quvvatiga, g‘ayrat va shijoatiga umid bog‘lashdi. Hamma zamonlarda ustozlar o‘z shogirdlari kamolotidan mamnun bo‘lgani aniq...

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mustaqillik bayramining o‘ttiz uch yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqida Yangi O‘zbekistonni barpo etishning beshta eng muhim yo‘nalishini ko‘rsatib, unda birinchi navbatda “sifatli ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish”ga urg‘u berdi. “Muammolarning yechimi, savollarimizning javobi faqat va faqat ta’limda. Hamma eshiklarni ochadigan kalit ham – faqat va faqat ta’lim va tarbiyadir”. Bu ulug‘vor g‘oya muallimlarning jamiyatdagi o‘rni va missiyasini belgilab beradi. Qolaversa, barcha turdagi ta’limni isloh etish, maktab va oliy o‘quv yurtlaridagi ta’lim sifatini oshirib, jamiyat uchun eng noyob mutaxassislar, yuragi butun shaxslar yetishtirib chiqarish – bu muallimga bog‘liq. Bu yo‘lda qat’iyat, shijoat, fidoyilik lozim. Eng muhimi, har bir muallim o‘z kasbini chin yurakdan sevishi, har kun, har soatda

> **Muammolarning yechimi, savollarimizning javobi faqat va faqat ta’limda. Hamma eshiklarni ochadigan kalit ham – faqat va faqat ta’lim va tarbiyadir...**

o‘z-o‘ziga hisobot berishi va ayni damda, vijdonini ko‘zguga solib ko‘rishi lozim.

Chunki yoshlarning go‘zal qalbini bunyod etish, yoshlarning ko‘nglini, yuragini turli balolardan qo‘riqlash – bu Vatan sarhadlarini himoya qilayotgan askarlar ishidan aslo kam emas. “Har bir muallim xuddi Vatan himoyasi uchun otlangan askardek sinfxonasiga, auditoriyaga kirmog‘i kerak”. Alloma adib Abdulla Qodiriy ta’biri bilan aytganda, bu hikmat “turmush onasining dard chekib tuqqan to‘ng‘ich o‘g‘lidir”. Uni yodida tutgan muallim yoshlar qalbi, tafakkuri himoyasi bilan mashg‘ul bo‘ladi. Bugungi kun muallimlari o‘zlari uchun jadid bobolarining fidoyiligini namuna qilib olishi lozim. To‘g‘ri, u bir asr naridagi tarix. Jadidlarning hayotiy dasturlarini chuqur o‘rganish va ularning armonga aylanib qolgan orzularini tugal ro‘yobga chiqarish bugungi kun muallimlari zimmasidagi sharafli vazifa sanaladi. Vazifaning qoyilmaqom ijrosi ustoz muallimning yodi bashariyat tarixi kitobining unutilmas va o‘chmas sahifalari bo‘lib qoladi. Zotan, bunday sharafga, maqom va martabaga eng dongdor shoirlar ham havas qilganini yaxshi bilasiz:

Shoirga dedilar: Siz baxtli inson,
El-yurt ardoqlaydi, hamma taniydi.
Shoir javob berdi: Menda bir armon –
Muallim desalar meni, qaniydi...

Bahodir KARIM

KITOBGA OTILGAN O‘Q

Boshlanishi 1-sahifada.

Bir kuni, chamasi, o‘ttiz yoshlardan oshgan, adabiyotga ishqiboz bir yigit: “Menda “O‘tkan kunlar”ning 1926-yilda chiqqan nashri bor”, deb qoldi. Men qiziqib o‘sha kitobni berib turishini so‘radim. O‘rniga Cho‘lponning lotin alifbosida chiqqan “Kecha va kunduz” romanini olib kelib berishimni aytdim. U rozi bo‘lib ertasiga “O‘tkan kunlar”ni olib keldi. Uch bo‘limdan iborat kitobni olib varaqlab chiqdim. Kitob varaqlarining betlari dog‘ bo‘lib ketganiga hayron bo‘lib, sababini onamdan so‘raganman. Onam: “Bular kitobni o‘qigan odamlarning Otabek va Kumushga qayg‘urib to‘kkan ko‘z yoshlarining dog‘i”, deb tushuntirgan edi.

Arab alifbosini o‘qishni bilmasdim. “O‘tkan kunlar”ni o‘qish uchun arab alifbosini o‘rgandim. 1958-yilga kelib “O‘tkan kunlar” to‘qson ming nusxada chop etildi. O‘sha kungacha hali bironta o‘zbek kitobi bunchalik katta adadda bosilmagan. Men kitob do‘konida besh yil ishlagan bo‘lsam, doim ko‘nglim bir sabab o‘ksik edi. U ham bo‘lsa rus kitoblari katta navbat bilan sotilardi. Biz esa: “Qani edi o‘zbeklarda ham shunday navbat bilan sotadigan kitoblar bo‘lsa...”, deb havas qilardik. “O‘tkan kunlar” chiqqach, bir kunda besh yuz dona sotganmiz. Marhum yozuvchi Habibulla Qodiriyning “Otam haqida” kitobini o‘qib, Abdulla Qodiriyni Abulqosim madrasasida tahsil olganini bildim. Shuning uchun madrasadagi bir xonani Abdulla Qodiriy uchun ajratib, kerakli buyumlar bilan jihozladik. Bu ishda Habibulla aka yaqindan yordam berdilar. Keyinchalik “O‘tkan kunlar”ning o‘sha yillarda chiqqan ilk nashrini mazkur xonaga olib kelib qo‘ydik. Chunki bu kitob yuzimizni yorug‘ qilgandi”.

Taniqli yog‘ochsoz Abdug‘afur akaning uyida ustalar bilan birga o‘tirgan edik. Uy sohibi meni ularga tanishtirdi. Shundan so‘ng ustalardan biri shunday voqeani so‘zlab berdi: “Bir yili rus kampirning xonadonida ishladik. Ayol o‘rangan. Sof o‘zbek tilida gapirardi. U “Bu gaplar “O‘tkan kunlar”dan”, deb shunday misollar keltirardiki, biz u kitobni o‘qimaganligimiz uchun uyalib ketardik. Ishimiz nihoyasida kampir: “Men asli Kaliningraddanman. Taqdir taqozosi bilan Sibirda ham yashaganman. O‘sha yerda yozuvchi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” kitobining ruscha tarjimasini o‘qib, yurtingizni sevib qolganman. Keyin bu yerga ko‘chib keldim. “O‘tkan kunlar” tufayli islom dinini qabul qildim”, deb bizni lol qoldirgandi”.

Qariyb o‘ttiz besh yil davomida Ittifoq hamda O‘zbekistondagi eng yuqori lavozimlarda ishlagan bir rahbar, oxiri xorlanib, amaldan tushgach, dam olishga ketayotib “O‘tkan kunlar”ni (ustiga boshqa kitobning muqovasini qo‘yib) o‘zi bilan birga olib ketadi. U yerdan kitobni o‘qib qaytgach, “Men shu kitob muallifining hayotini “qatag‘ondan” saqlab qolsam bo‘larkan”, deb afsuslangan ekan.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Toshkent shahrida 1935-yil 2-maydan boshlab Oqtepa gidroelektr stansiyasi qurila boshlaydi. O‘zbekistonda dastlabki qurilgan ushbu inshoot Chirchiq-Bo‘zsuv suv traktining o‘rta qismida joylashgan bo‘lib, Ikkinchi jahon urushi davrida qurilish ishlari vaqtincha to‘xtatib qo‘yiladi. GES qurilishida Toshkent shahri aholisi hashar yo‘li bilan faol qatnashadi. Keyinchalik unga O‘zbekistonning o‘sha davrdagi rahbari Yo‘ldosh Oxunboboyevning nomi berildi. Hozir ushbu stansiya poytaxt va Toshkent viloyati iste’molchilariga elektr energiyasi yetkazib beradi.

Toshkent davlat texnika universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori Nurulla Zikrillayev ushbu GES qurilishida bo‘lgan bir voqeani so‘zlab berdi: “Samarqand darvoza” mahallasining yaqinida istiqomat qilgan bizning bir qarindoshimiz bo‘lardi. U kishining ismlari Obidxo‘ja Toshxo‘jayev edi (*men uni bilardim. Bizga qo‘shni bo‘lgan Zangi ota mahallasida yashagan. O‘zlari bobomizni bilgan, tanigan insonlardan edi. Ularning Ayniddin ismli o‘g‘li bilan o‘rtoq edim. Obidxo‘ja aka dadamiz to‘plagan, “Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida” kitobiga yaxshi bir xotira yozib bergan.* – **Sh.Q.**). O‘sha paytda GES qurilishi bevosita Davlat xavfsizligi qo‘mitasi



(DXQ) nazorati ostida bo‘lgan. Men u yerda qorovul edim. Bir kuni boshliq mendan:

– Sen “Samarqand darvoza” mahallasining yaqinida turarkansanmi? – deb so‘radi.

– Ha, – dedim.

– O‘sha “Samarqand darvoza” mahallasida Abdulla Qodiriy degan yozuvchi bo‘lgan, – dedi tovushini pastlatib. – U “O‘tkan kunlar” degan kitob yozgan. Shu kitobni menga topib berolmaysanmi?

Men avvaliga qo‘rqib ketdim. Chunki Abdulla aka qamalib ketgandi... Biror hafta vaqt o‘tdi. Qarindoshlarimning biridan “O‘tkan kunlar”ni topib, boshlig‘imga olib bordim. O‘sha kundan boshlab boshliq o‘z xonasidan chiqmay qo‘ydi. Oradan chamasi to‘rt-besh kun o‘tgach, uning xonasidan to‘pponchadan otilgan o‘q tovushi eshitildi. Biz “Nima bo‘ldiykin?” deb o‘ylab, xonasiga yugurib kirdik. U soqollari o‘sib ketgan, sochlari to‘zg‘igan holda bir qo‘lida kitob ikkinchi qo‘lida to‘pponcha bilan turardi. O‘zi esa: “Kumushga Zaynab zahar berdi. Kumush o‘ldi”, deb ho‘ngrab yig‘lardi. Men va hamkasblarim boshlig‘imiz o‘qni zahar bergan Zaynabga qarata otdimi yoki asar ta’siriga tushib, aql-u hushi o‘zida emasligidan to‘pponcha tepkisini bosib yubordimi yoki... anglolmay qoldik.

Yozuvchi bobom Abdulla Qodiriy va uning yozganlari haqida shu kabi hayotiy hikoyalar talaygina. Aslida ham tarix saboqlarga to‘la. Garchand muallif va uning kitobiga qarab o‘qlar otilsa ham, haqqoniy asarlar va uni yozgan adiblar aslo o‘lmaydi.

Sherkon QODIRIY

YANGI NASHRLAR

HOZIRJAVOBLIK NAMUNASI

Joriy yilda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan yosh ijodkorlar-u talaba-yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish va ommalashtirish maqsadida talay ilmiy, badiiy, publitsistik ruhdagi o‘qishli kitoblar chop etildi. Xususan, yaqinda Parijda o‘tkazilgan XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlarida rekord natija ko‘rsatgan paralimpiyachilarimizning tarixiy g‘alabasiga bag‘ishlangan “Olimp uzra hilpirar O‘zbekiston bayrog‘i” to‘plamining ikkinchi nashri chop etildi. Xabaringiz bor, kitobning ilk nashri “Parij – 2024” XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlari ishtirokchilarining salmoqli muvaffaqiyatiga bag‘ishlangan edi.



Davlatimiz rahbari 13-sentyabr kuni Ko‘ksaroy qarorgohida Paralimpiya o‘yinlarida jasorat ko‘rsatgan O‘zbekiston sport delegatsiyasi vakillari bilan uchrashuv chog‘ida sportchilarga ushbu to‘plamni taqdim qilar ekan: “Bu ziyolilarimizning, shoirlarimizning sizlarga bo‘lgan yuksak hurmat va ehtiromi ramzidir”, dedi.

Qisqa muddatda hozirjavoblik bilan tayyorlangan mazkur kitobdan Prezidentimizning 2021-yil 5-noyabrdagi “2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi qarori, sport o‘yinlarida ulkan zafar quchgan shijoatli yigit-qizlarimizga yo‘llagan tabrigi, g‘oliblar bilan telefon orqali muloqotlari hamda sportchilarimizga bag‘ishlangan she’rlar va atletlarning tarjimayi holi, muvaffaqiyatlari haqidagi ma’lumotlar o‘rin olgan.

NOYOB MANBALAR

So‘nggi vaqtlarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan jadidlik harakati namoyandalari va jadidshunoslar faoliyatiga oid noyob manbalarni targ‘ib qilish va keng yoyish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. “Naim Karimov” hamda “Boybo‘ta Do‘stqorayev zamondoshlari xotirasida” kitoblari shular jumlasidan. “Naim Karimov” tanlangan asarlar to‘plami taniqli millat fidoyisining tavallud sanasi munosabati bilan nashrga tayyorlangan bo‘lib, mazkur kitobga olimning Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va Oybek hayoti hamda ijodiga bag‘ishlangan “Uch buyuk siymo” asari, shuningdek, O‘zbekiston xalq shoiri Mirtemir hayoti va ijodidan hikoya qiluvchi ma’rifiy-biografik romani kiritilgan.



Hali ko‘pchilikka ma’lum bo‘lmagan arxiv ma’lumotlari-yu chuqur ilmiy tahlilga asoslangan ushbu adabiy tadqiqotlar o‘zbek xalqining yaqin o‘tmishdagi fidoyi farzandlari to‘g‘risida kitobxonga batafsil ma’lumot beribgina qolmay, o‘z vaqtida tarixiy adolatning tiklanishiga xizmat qilgani bilan ham diqqatga sazovordir.

“Boybo‘ta Do‘stqorayev zamondoshlari xotirasida” kitobida esa taniqli jadidshunos olimning ibratli ishlari, yuksak insoniy fazilatlari, el-yurt manfaati yo‘lidagi fidokorona xizmatlari haqida so‘z boradi. Ushbu to‘plam orqali kitobxonlar hukmiga havola etilayotgan xotiralarda milliy matbuotimizning tolmas tadqiqotchisi, ko‘plab iste’dodli shogirdlar tarbiyalagan hassos pedagog Boybo‘ta Do‘stqorayev ilmiy merosining yangi qirralari g‘oyat sinchkovlik bilan ochib berilgan.

Jumladan, Xayriddin Sultonov, Abdulla Oripov, Naim Karimov, Saydi Umirov, Mahmud Sa’diy, Ulug‘bek Dolimov, Hamidulla Boltaboyev singari taniqli yozuvchi, shoir, olim, publitsistlarning sinchkov kuzatishlari ko‘p jihatdan kitobxonlar uchun foydali bo‘lishi, shubhasiz.

Fozil FARHOD

MOZIY MANZARALARI

Qadimgi Rim shoiri Goratsiy she’rlarining birida shunday deb yozgan edi: “Hayot og‘ir mehnat va tashvishlarsiz sizga hech narsa hadya etmaydi”. Haqiqatan ham hayot o‘zining qanchadan qancha mashaqqatlari bilan insonlarning oldiga turfa xil sinovlarni ko‘ndalang qo‘yadi, bu orqali u bizni chiniqtirmoqchi, kuchli qilmoqchi bo‘ladi. Bu hayotning dolg‘ali sinovlariga chidagan inson ma’nan kuchli, ruhan tetik, qalban boy shaxsiyatga aylanadi. Aynan shunday ulkan shaxsiyatlar o‘z ortidan minglab insonlarni ergashtira oladi, eng og‘ir damlarda vataniga tayanch, millatiga suyanch bo‘ladi.



Yaqinda “Akademnashr” nashriyotida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi bosh ilmiy xodimi, tarixchi olim Bahrom Irzayevning “Namangan tarixidan lavhalar” nomli kitobi chop etildi. Ushbu kitobda XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmidagi davr va ijtimoiy-siyosiy muhitning og‘ir talablariga qaramasdan Turkiston xalqining ong va tafakkurini kengaytirish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatgan hamda ushbu yo‘lda aziz jonlarini fido etgan bir qator millat fidoyilarining shonli hayot yo‘li yoritib berilgan.

Kitobda Namangan shahri va viloyati hududida tug‘ilib o‘sgan jadid taraqqiyparvarlari, davlat va jamoat arboblari, shoir-u jurnalistlar hayoti, ularning ijodiy faoliyati hamda mustabid tuzum qatag‘on siyosati oqibatida mahv etilishiga doir tarixiy voqea va hodisalar qalamga olingan.

Jumladan, pedagog va noshir Is’hoqxon Ibrat, Turkiston Muxtoriyatining Maorif noziri va milliy istiqlolchilik harakatining rahbarlaridan biri Sayyid Nosirxon To‘ra Kosoniy, o‘zbek hajviy she’riyatining yetuk vakili Muhammadsharif So‘fizoda, “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi va “Yurt” jurnalida o‘tli maqolalari bilan faol ishtirok etgan Abdullabek Musabekov, nafaqat O‘zbekiston, balki butun Turkiston o‘lkasidagi huquqshunoslik maktabining asoschisi Muhammadjon Mo‘minov, jurnalist va “Nashri maorif” jamiyatining Namangan bo‘limi rahbari sifatida faoliyat olib borgan Lutfulla Olimiy, iste’dodli shoir va dramaturg Rafiq Mo‘min kabi bir qator millat fidoyilarining ijodiy merosiga doir maqolalar va xotiralar ilk bor o‘quvchilar e’tiboriga havola etilgan.

Muslimbek ALIJONOV,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti katta o‘qituvchisi, PhD

ESSE

BULBUL TAN BERGAN



Xotiram pand bermasa, Mahmudjon Tojiboyev haqida o‘ttiz besh yillar oldin yozgan maqolamga shunday sarlavha qo‘ygan edim.

Unda bir rivoyat keltirilgani esimda: qadimda mashhur bir xonanda va sozanda o‘tgan ekan. U kuyni shunday chalar, ashulani shunday kuylar ekanki, har qanday tinglovchi ko‘z yoshini tiyolmaskan. Bir kuni o‘sha xonanda sel bo‘lib qandaydir mumtoz kuyni chalib, ohangiga o‘zi ham mast bo‘lib, yig‘lab o‘tirganida ittifoqo dutori boshiga bulbul kelib qo‘nibdi. Sozanda dutorni mayin tebratib kuy chalishda davom etibdi. To kuy tugaguncha bulbul ketmabdi. Kuy tugagandan keyin ham sozanda bir dam dutorni shu holda ushlab turibdi. Bulbul biroz sozandaga termilibdi-da, so‘ngra sekin uchib ketibdi. O‘shanda sozanda birinchi marta bulbulning ko‘zini ko‘rgan ekan. Shundan keyin el o‘sha sozandani “bulbul tan bergan sozanda” deydigan bo‘libdi. Ayni dam eslayotganim maqolada Mahmudjon Tojiboyev o‘sha sozanda va xonandaga mengzalgan edi.

Bugun o‘ylab ko‘rsam, o‘shanda Mahmudjon yosh, endigina o‘ttizga borib-bormagan xonanda ekan. Biroq allaqachon el og‘iziga tushib ulgurgan edi. Ustozlari Orifxon Hotamov, Ochilxon Otaxonov, Fattohxon Mamadaliyev unga o‘z tengdoshlari kabi muomala qilishardi. Shuning o‘ziyoq Mahmudjon yosh bo‘lishiga qaramay mashhur hofiz-sozandalar safiga qo‘shila olganidan darak berardi.

Shundan keyin Mahmudjon bilan qadrdonlashib ketdik. Garchi tez-tez uchrashmasak-da, ko‘nglimizda bir-birimizga hurmat barqaror edi. Qachon, qayerda, qay holatda ko‘rishmaylik, diydorga quchoq ochib kelardik. U nihoyatda kamtar, boladek beg‘ubor, tom ma’noda samimiy, ustozlariga, oilasiga, do‘stlariga, shogirdlariga sadoqatli, oqibatli inson edi. Doimo kulib turardi, kulganda qiyiq ko‘zlari yumilib ketar va bu o‘ziga juda yarashardi.

Mahmudjon bilan ko‘p suhbat qurganmiz, ularning har biri haqida alohida maqola yozish mumkin.

...To‘ng‘ichim Sherdorni uylantirish harakatida yurgan edim. U paytlarda (1992-yilning kuz oylari) do‘konlarda tuzukroq narsani topish amrimahol edi. To‘yni boshlashga boshlab qo‘yganmiz-u bu yog‘iga zarur narsalarni qayerdan topishni o‘ylab, kechalari uyqu kelmaydi.

Shunday kunlarning birida kechqurun eshik qo‘ng‘irog‘i jiringladi. Ochsam Mahmudjon turibdi. Usti-boshi jiqqa ho‘l. Ichkariga taklif qildim.

– Ha, Mahmudjon, baxayrlikmi? – dedim ajablanib. – Bu yomg‘irda nima qilib yuribsiz?

O‘ziga xos va o‘ziga juda yarashadigan mayin, yoqimli ovozda kuldi. Qo‘lidagi kattagina tugunni bir chekkaga qo‘ydi. Hol-ahvol so‘rashganimizdan keyin dedi:

– To‘y qilayotganingizni eshitdim. – Endi u baralla kuldi. – Bizda nima ko‘p to‘n ko‘p. Har to‘yda berishadi-da. Shu bois sizga ham to‘yona qilib besh-oltita to‘n olib keldim. Qudalarga kiygizasiz-da.

– Obbo, Mahmudjon-ey, qayerdan, kimdan eshitdingiz. Ovora bo‘psiz-da. Erta-indin o‘zim bormoqchi edim to‘yga aytgani, – dedim xijolat bo‘lib.

– Shart emas borishingiz, o‘zim bilib oldim to‘y qachon, qayerda bo‘lishini. Bular arzimagan narsalar, o‘ylab o‘tirmang. Asosiy xizmat – nasib etsa oshda bo‘ladi. Ustoz Ochilxon aka bilan birga xizmatda bo‘lamiz.

U davrlarda nahorgi osh juda barvaqt bo‘lardi. Osh beriladigan kuni to‘yxonaga ustoz-shogird hofizlar bizdan, ya’ni to‘y egalaridan oldin kelib o‘tirgani hech esimdan chiqmaydi.

Mahmudjon Tojiboyev bilan tanishganimizdan buyon o‘tgan yillar davomida ikkimizning ham hayotimizda, ijodimizda ko‘p o‘zgarishlar bo‘ldi. Bu, tabiiyki, mamlakatimizda, xalqimiz turmushida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan ham bog‘liq. Mahmudjon mumtoz qo‘shiqchiligimiz, xususan, maqom san’atining yetuk, bilimdon ijrochisi, himoyachisi, jonkuyari, targ‘ibotchisi bo‘lib yetishdi. Ha, men bu so‘zlarni bilib, ataylab ishlatyapman: u maqomning barcha nozik jihatlarini, ijro etilayotgan g‘azal so‘zlarining ma’nosini tushunib kuylardi. Shunga qarab parda bosardi. Shu bois u maqomning buzib aytilganini eshitsa chiday olmasdi, ijrochiga odob bilan tanbeh berar, qanday kuylash lozimligini, qanaqa talaffuz etish zarurligini erinmay ko‘rsatib berardi.

Mahmudjon maqomni asl holicha ijro etish, kelgusi avlodlarga yetkazish, biron-bir jihatini o‘zgartirmaslik tarafdori edi. U maqomlarimizni asrlar davomida qad rostlab turgan me’moriy obidalarimizga o‘xshatardi. Bu obidalarni rekonstruksiya qilish, ya’ni zamonaviy ko‘rinish berish mumkin emas. Ularni konservatsiya – o‘z holicha saqlash zarur. Ular shunisi bilan qadrli, shunisi bilan go‘zal. Sayyohlarni, ayniqsa, xorijliklarni o‘ziga jalb etishining asosiy sababi ham shunda, derdi. Xuddi shunday, maqom ashulalarini zamonaviy kuylarga solish bu boqiy merosimizning aslligiga putur yetkazadi, deb jon kuydirardi. Bu fikrlarini televideniye orqali, turli anjumanlarda, o‘zaro suhbatlarda ko‘p aytgan. Konservatoriya professori sifatida talabalarga ana shu ruhda saboq berar edi.

U Prezidentimizning 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroridan nihoyatda mamnun bo‘ldi. Shu qaror bilan tashkil etilgan O‘zbek milliy maqom san’ati markazi a’zosi sifatida viloyatlarda yurib, bu mumtoz durdonamizga qiziqadigan yoshlarni izlash, ansambllar tuzishda faol qatnashdi.

2018-yil sentyabr oyida Shahrisabzda o‘tgan birinchi Xalqaro maqom san’ati anjumanida ishtirok etgani, uning taassurotlarini hayajon bilan hikoya qilib bergani hamon esimda. Anjuman har ikki yilda o‘tkazilishi belgilab qo‘yilganidan g‘oyat xursand bo‘lib, davlatimiz rahbarining bu tashabbusi, bu qarori tarixiy voqea ekanini qayta-qayta ta’kidlar, yoshlarga, shogirdlariga ushbu g‘amxo‘rlik va e’tiborning qadriga yetishni, undan unumli foydalanishni uqtirar edi.

“Guliston” jurnalida Mahmudjon Tojiboyev bilan suhbat uyushtirish rejalashtirilgani aytilganda, u sozini ko‘tarib tahririyatga keldi. Uzoq suhbatlashdik. Maqom san’atining tarixi, sho‘balari, qaysi maqom qanday boshlanishi, ijro uslublari haqida batafsil gapirib berdi.

– Tovushning past-balandligi pardalar bilan o‘lchanadi. Pardani to‘g‘ri kelgan joydan boshlash mumkin emas, muayyan pardalar bor. Masalan, “Buzrug” maqomi “re”dan boshlanadi. Agar boshqa pardadan boshlansa “Buzrug” chiqmaydi. Maqom – mukammal tartibga asoslangan san’at. Musiqani tushunmaydigan odamga ham istalgan joydan boshlab chalib bering, kamchiligini sezadi, – dedi u o‘sha suhbat davomida.

Fikrlarini ifodalash jarayonida sozni chalib, pardalarni ko‘rsatib, erinmay tushuntirdi. Maqomdan namunalar ijro etdi. Biz, tahririyat xodimlari u ijro etgan kuy va ashulalardan bahramand bo‘ldik, zavq va ma’naviy oziq oldik.

Suhbat tafsilotlari “Guliston”ning 2020-yil birinchi sonida e’lon qilindi. Jurnal chiqqanini eshitgan Mahmudjon tahririyatga yana bir bor keldi. Vaholanki, biron shogirdini yuborishi ham mumkin edi. (Shunday ijodkorlar ham bor. U haqda maqola chiqqani aytilsa, mayli turaversin, biron kun yo‘lim tushganida olarman yoki biror kimni yuborarman, deydi). Jurnalni bir boshidan varaqlab, har bir materialga, suratga e’tibor berib, fikrini aytdi. Shu bahona san’at, ayniqsa, mumtoz adabiyot va musiqamiz, o‘tgan ustozlar haqida ancha gurunglashdik.

Stolda O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A’zam bilan kamina birga tushgan surat turgan edi. Mahmudjonning ko‘zi shu suratga tushdi-yu, gapidan to‘xtab menga yuzlandi.

– Mana shu kishining oldida juda xijolatdaman-da, – dedi. – Bir tadbirga taklif qilgan edi. Hozir sababi aniq esimda yo‘q, lekin o‘shanda borolmaganman. Shundan buyon u kishining ko‘ziga qarashga botinolmayman.

Men bu gapni keyin Erkinga aytdim. U kuldi.

– Haliyam esida ekanmi? Mening yodimdan allaqachon ko‘tarilib ketgan... To‘g‘ri, tug‘ilgan kunmidi, nimadir tadbirga chaqirgan edim, kelolmadi. Mahmudjonning bunaqa odati yo‘q edi-ku, biron uzrli sabab chiqib qolgandir-da, deb qo‘ya qoldim. Shundan keyin uch-to‘rt marta ko‘rishdik, menga ko‘zi tushishi bilan yuzini qo‘li bilan bekitib, xijolatomuz kulardi, – dedi adib.

U ana shunday andishali, imonli inson edi.

O‘sha suhbatimiz so‘ngida Mahmudjon menga qarab turdi-da:

– Sizga bir iltimosim bor, – dedi.

– Bajonidil.

– Sal kunlar isigandan keyin (suhbatimiz mart oyining boshlarida bo‘lgan edi) shu kishini olsangiz, yana kim, – u biroz o‘ylanib turdi-da, – Usmon Azim bilan qandaysiz?

– Juda qadrdonmiz.

– Unda juda yaxshi! Usmon akani ham olib, mening uyimga borasizlar. Shahar tashqarisidan hovli-joy qilganman. Hali to‘la bitmagan bo‘lsa-da, suhbat qilib o‘tirsak bo‘ladi. Ulfati chor bo‘lib bir xumordan chiqamiz.

– Nazm va navo kechasi bo‘lar ekan-da...

Bu gapdan Mahmudjon miriqib kuldi. So‘ng “Bizning kulbamizda bo‘ladigan “Nazm va navo kechasi”da uchrashguncha”, deb xayrlashdi.

Afsus, ming afsus, bu niyat amalga oshmadi. Suhbatimizdan o‘n-o‘n besh kun o‘tib koronavirus pandemiyasi tufayli mamlakatimizda karantin boshlandi...

11-iyul kuni ijtimoiy tarmoqlarda sovuq xabar paydo bo‘ldi: “O‘zbekiston xalq hofizi”, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori Mahmudjon Tojiboyev vafot etdi”.

Vo darig‘! Bu ne ko‘rgilik! Endigina 63 yoshga to‘lgan edi-ya... Qancha orzu-niyatlari bor edi-ya...

O‘zbek xalqi, uning boqiy merosi bo‘lgan maqom san’ati bor ekan, buyuk hofiz, benazir sozanda Mahmudjon G‘ozi o‘g‘lining nomi ham yashaydi. U kuylagan ashulalar, chalgan kuylar ezgu niyatli solih insonlar diliga malham bo‘lib yangrayveradi.

Mamatqul HAZRATQULOV

BIR SUVRAT TARIXI

“MEDUZA” SOLI”



Parijda “Luvr” muzeyiga kirish uchun navbatda turarkanmiz, biz kabi boshqa minglab san’at shinavandalari ham o‘zlari havaslagan asarlar tomoshasiga orziqayotganini ko‘rib, “Muncha hamma bu joyga oshiqmasa!” deyman rafiqimga.

Muzey yetti iqlimdan kelgan sayyohlar bilan tirband ekaniga qaramay, barchani barobar bag‘riga sig‘dira olganidan taajjublanaman. Kirish zali judayam tiqilinch, biroq ichkariga oralaganingiz sari odamlar ham sanjoblasha boradi.

Anavi xitoylik kishi allaqanday bir kartinaga berilib tikiladi-da, u yog‘idan o‘tib, bu yog‘idan o‘tib rasmga oladi. Bir amallab men ham o‘sha yerga o‘tib oldim.

Bu o‘sha – “Meduza” soli” nomli mashhur suvrat edi. Uning nusxalarini avvallari ham ko‘p ko‘rganman, ammo bunisi chinakami edi. Nimasini aytsam, asl nusxasini ko‘rish boshqa narsa ekan, yurakdan o‘tkazish esa tag‘in bir bo‘lak hodisa. Ortimda yana qancha odamlar unga oshiqayotgan bo‘lsa? Kimlardir bu kartinaga shunchaki bir nazar tashlab o‘tyapti, kimdir esa mushohada qilyapti. Boshqasi anavi xitoylik sayyohga o‘xshab uni rasmga olyapti.

1816-yilning 2-iyulida G‘arbiy Afrika sohillarida “Meduza” yelkanli kemasi halokatga uchraydi. Oradan yillar kechsa-da, biroq bo‘lib o‘tgan halokatli hodisa to‘g‘risidagi hikoyalar sira tinmaydi. Musavvir Teodor Jeriko “Meduza” fregatining halokati” to‘g‘risidagi kitobni o‘qib qoladi. Omon qolganlarning g‘ussali hikoyalarini eshitgan rassom nuqul hayajonga tushaveradi. Nihoyat, u aynan shu mavzuda suvrat chizishga kirishadi. Halokat G‘arbiy Afrikaning Senegal qirg‘oqlarida ro‘y beradi. Kema olis safarga yetarlicha tayyor emasligi tufayli ana shunday fojiaga yuz tutib, suvga g‘arq bo‘ladi. Ittifoqo, “Meduza” cho‘kayotganidan xabar topganlar kemadagi odamlarni shoshilinch ravishda ko‘chirishga bel bog‘lab, sol yasashga kirishadi. Shunday qilib, 147 kishi jonini saqlash ilinjida bu qo‘lbola solga chiqadi. Dastlab solga chiqqanlar eng xavfsiz o‘rin, solning qoq o‘rtasi – markaziy joy uchun o‘rin talashadi. So‘ngra esa barcha barobar hayot-mamot uchun kurashadi…

Bu orada sillasi qurigan odamlar nafaqat to‘lqinlar bilan, balki ochlik bilan ham ayovsiz olishishiga to‘g‘ri keladi. Soldagi arzimagan yegulik ularga urpoq ham bo‘lmaydi. Ana shunda suvda omonat qalqib ketayotgan sol sahnida hali odam qulog‘i eshitmagan vahshiyliklar ro‘y bera boshlaydi. O‘z hayoti ko‘ziga shirin ko‘ringan odamlar orasida qotilliklar-u kanniballik ro‘y beradi. Natijada 147 kishidan faqat 15 nafarigina qirg‘oqqa omon yetib oladi. Shundan so‘ng ularni o‘tkinchi kema olib ketadi.

1818-yili yosh rassom Jeriko chizish uchun o‘ziga munosib mavzu izlayotgan chog‘ida birdan o‘sha, G‘arbiy Afrika sohillarida ro‘y bergan fojia yodiga tushadi. Ikki yil ilgari u “Meduza” fregatining halokati” to‘g‘risidagi kitobni o‘qiganini tag‘in eslaydi. Rassom ishga kirishadi. Rasm 1819-yili Parijda ko‘rgazmaga qo‘yiladi va bu suvrat romantizm timsoliga aylanadi. O‘shanda Jeriko odamlarga eng jozibali va ayni paytda qo‘rqinch og‘riq bo‘lib tuyulgan odamxo‘rlik sahnasini tasvirlash niyatidan voz kechadi. Rassom o‘sha jarayonni, o‘sha hissiy taranglikni boshqa bir sahnada inkishof-u mahorat bilan tasvirlaydi.

U chizgani sari voqealar silsilasi oydinlasha boradi. Ittifoqo, ruhiyati ham tiniqlashib, o‘ziga eng kerakli nuqtani topishga muvaffaq bo‘ladi. Darvoqe, solda omon qolganlardan biri, “Sabohda ufq osha nur taralayotganiga ko‘zim tushdi, avvaliga buni payqamadim, keyin yarq etib ko‘zim ochilganday bo‘ldi”, deya xotirlaganini eslaydi. O‘sha nur sol yonidan sirg‘alib o‘tadi. Ana shunda Jeriko tabiiy va eng kerakli jarayonni ilg‘aydi va uni moybo‘yoqlarda namoyish etadi…

Osmon ravoqidagi rutubatni g‘ira-shirada bir nur yoritayotgani insoniyat oxir-oqibat omonlikka yetishayotganini anglatadi. Asarda bosh qahramon yo‘q. Har kim joy va jon qayg‘usiga tushgan. Kimdir najot topishidan oldin mashaqqatga dosh berolmay, jonsarak jonidan ayriladi. Kimdir jon talvasasida omonsiz to‘lg‘anadi… Boshqa birov oxirgi kuchini jamlab, o‘zganing joni badaliga hayotda qolishga tirishadi.

Rassom esa umid bilan umidsizlikni mushtarak bilib, timsollarning hissiy tarangligini qalamga oladi. Real voqea asosida olamshumul asarni, “Meduza” soli”ni yaratadi va bu san’at durdonasi ko‘plab boshqa asarlar dunyoga kelishiga turtki bo‘ladi.

Shahodat ULUG‘,
Parij

YO‘LCHIROQ

Abdulla QAHHOR

UYAT



Uyat faqat insonga xos tuyg‘udir. Hayvon uyat paydo qilolmagani uchun insonga yaqinlasholmaydi, lekin inson uyatini yo‘qotib hayvonga yaqinlashib qolishi mumkin.

Oyog‘i yoki tili bilan gandiraklab yurgan mastga, qo‘lga tushib yoki qo‘lga tushishdan qo‘rqib es-hushini yo‘qotgan o‘g‘riga, hiyla-nayrangi fosh bo‘lib bezrayib turgan tovlamachiga, duch kelgan ayolga eshak tili bilan “muhabbat” izhor qilgan maxluqqa razm soling, bularning qaysi biri va nimasi hayvondan ortiq? Til-jag‘i deysizmi? Shoirdan eshiting:

Qachon odam qatoriga sanarlar,
Bor o‘lgan birla echkuning soqoli!

Bularning til-jag‘i echkining soqoliday gap – odamlik nishonasi emas.

Bir donishmand uyatni “vijdonning sirtqi ko‘rinishi”, debdi. Demak, uyatsizlik bilan beadablik, beadablik bilan axloqsizlik, axloqsizlik bilan jinoyatkorlik orasida qalin devor yo‘q, bularning har biri vijdonsizlikning turli bosqichidir. Modomiki shundoq ekan, uyatni jamiyatimizni balo-qazodan saqlaydigan buyuk posbon deyish mumkin.

Yov qal’ani olmoqchi bo‘lsa, hujumni posbonni bosishdan boshlaydi. Posbonni qo‘lga olish – qal’aga raxna solish demakdir.

Jamiyatimizga yov ot soldirmoqchi, shu maqsadda piyonistalar, fosiqlar, o‘g‘rilar, tovlamachilar, poraxo‘rlar, amalparastlar, bezorilar va boshqa chiqit odamlar qo‘li bilan ulug‘ posbonimizga hamla qilayotibdi. Bu xildagi odamlar ko‘p emas, lekin butun bir yig‘inning kayfini buzish uchun bitta uyatsiz kifoya, shuning uchun bular ko‘p ko‘rinadi; bular jamiyatimizga dahshat soladigan kuch emas, lekin niyati dahshatli: jamiyatimizning ulug‘ posboni bo‘lmish uyatning oyoq-qo‘lini bog‘lab, chetga surmoqchi, shu bilan jamiyatimiz qal’asiga raxna solmoqchi.

Biz odob uchun kurash olib borar ekanmiz, bu yo‘lda ko‘radigan choralarimiz, joriy qiladigan tadbirlarimiz birinchi navbatda ulug‘ posbonimiz bo‘lmish uyatni dushman hamlasidan mudofaa qilishga qaratilishi zarur.

Odobsizlik taraqqiy topib yetib boradigan joyi “jinoyat” degan narsa aytmoqqa oson, uning zamirida barbod etilgan salomatlik, nomus, nohaq to‘kilgan hovuch-hovuch ko‘z yoshi yotadi.

Biladigan odamlarning aytishiga qaraganda hozir sodir bo‘layotgan jinoyatlarning 80 foizi ichkilik orqasida sodir bo‘lyapti. Modomiki, shundoq ekan, nima uchun avtobusga yalang‘och chiqish, dasturxon ustida ro‘molchaga burun qoqish beadabchilig-u, odam gavjum joylarga ichkilik ichib borish, odamlarga jirkanch bir alfozda ko‘rinish beadabchilik emas? Nima uchun araqxo‘r mast holda militsiyaga ko‘rinishdan hayiqadi, hushyorxonaga tushishdan qo‘rqadi-yu, uyat degan narsani xayoliga ham keltirmaydi. Ichkilik ichish qachondan beri, nima uchun ayb bo‘lmay qoldi?

Biz ko‘pincha “yoshlarimizning tarbiyasi buzilayotipti” deymiz, holbuki, buzuq tarbiya osmondan tushayotgani yo‘q; o‘tmish qoldig‘i to‘g‘risida gapiramiz, holbuki, hech qanaqa o‘tmish qoldig‘i ma’lum shart-sharoit bo‘lmasa davom etolmaydi. Inqilobdan burun o‘zbeklarning jirkanch odatlari ham bor edi, sharoit o‘zgarishi bilan bu odatlardan nom-nishon qolmadi. Biz ko‘pincha aybni yoshlarga, o‘tmishga to‘nkaymiz-u, beadabchilik, axloqsizlik, jinoyatkorlikka yo‘llanma beradigan ichkilikni propaganda qiluvchi, turish-turmushi bilan “ichkilik ichish ayb emas”, deb turgan odamlarni ko‘rib-ko‘rmaganday bo‘lamiz.

Har mahallada bo‘lmaganda ham o‘n mahallada, har bir korxona yoki mahkamada bo‘lmagan taqdirda ham o‘ntasida bitta oshkora araqxo‘r topiladi. Bu odamlar “o‘z puliga ichgani”, “jamoat tartibini buzmagani” (bola-chaqasini qiyratgani tartibsizlikka kirmaydi), “planni bajarib turgani” uchun hech kimdan ta’na-dashnom eshitmaydi, ichkilikning targ‘ibotchisi, ya’ni uyatning zavoli bo‘lib yura beradi.

Akademik Yunus Rajabiy va shoir Habibiylar yozgan maqolada aytilganidek, to‘ylarda “kattalar” “men senga aytsam”ga yetguncha ichishadi, oyoqlari ostida shisha yig‘ishtirib yurgan bolalarga parvo ham qilishmaydi. Bugina emas, o‘sha “kattalar” orasidagi eng hurmatli odamlar yoshlarga tilak tilagan bo‘lib qadah ko‘tarishadi, hammani ichishga, “oq ichish”ga undashadi, shu bilan hovlini, tomlarni tutib ketgan bolalarning ko‘z o‘ngida ichkilikka obro‘ tug‘dirib berishadi. Modomiki shundoq ekan, mehmonlar tarqalgandan keyin stolga bemalol o‘tirib shishalarning yuqini ichayotgan bolalarga qaysi til bilan “ichkilik ichish uyat” deb bo‘ladi?

Boshqa hamma odobsizliklar, axloqsizliklar, jinoyatlar to‘g‘risida ham shuni aytish mumkin.

“Muhabbat” degan olijanob tuyg‘uning boshiga ne balolarni keltirgan fosiq – axloqsiz o‘z kollektivida fosh bo‘lib, dakki yeganidan keyin ham bosh ko‘tarib yuraveradi, hech kimdan uyalmaydi; ilojini topsa yoshlarga va’z-nasihat qilish, majlislarda karillash bilan yuzidagi shaltoqni artmoqchi, shu bilan uyatning og‘ziga paxta tiqmoqchi bo‘ladi.

Biz odobsizlik, axloqsizlik, xilma-xil jinoyatlarga qarshi kurashda jamiyatimizning ulug‘ posboni uyatni dushman hamlasidan himoya qilish ishiga juda katta e’tibor qilishimiz kerak.

Uyat eng shafqatsiz qonundan ham kuchliroq, qudratliroqdir. Qonun faqat ko‘zi tushganda, shubha paydo qilgandagina jinoyatchining qo‘lini ushlaydi, yo‘lini to‘sadi. Uyat esa hamisha odobsiz, axloqsiz jinoyatchining tepasida turib, nojo‘ya ish qilish uchun qo‘l ko‘targani qo‘ymaydi. Har qanday qonunga ham chap berish mumkin, lekin uyatga chap berib bo‘lmaydi, chunki qonun odamdan tashqarida, uyat esa odamning ko‘ksida bo‘ladi.

1966-yil.

ABDULLA QAHHOR TAVALLUDINING 117 YILLIGI

ADIBDAN QOLGAN ERTAKLAR MANZILI

1968-yil 2-may. Moskva. Palata shiftiga ko‘z tikib yotgan Abdulla Qahhor chuqur xo‘rsinib, sekin gap boshladi:
– Alam qiladi, Kibriyoxon, alam qiladi. O‘z uying – o‘lan to‘shaging, deb bekorga aytishmagan. Shundog‘ hovlimiz qolib, shu yerda jon bersam-a... Afsus...



2024-yil. 20-sentyabr. Toshkent. Yakkasaroy tumani, Rajabiy ko‘chasi, 26/1-uy.

O‘zbekning zabardast adibi mana shu uyda umrining so‘nggi 10 yilini o‘tkazgan. Mana, qizg‘in suhbatlarni yelkasida ko‘targan aylana stol. Qanchadan qancha mushoira, bahs-munozaraga guvoh bo‘lgan buyumlar. Yunus Rajabiy tez-tez kelib turgani uchun mumtoz-mumtoz, mayin-mayin, hazin-hazin kuylarga to‘lgan xona. Nariroqda turgan qumg‘on-chi? Bu yerga qayerdan kelib qoldiykin? Ehtimol, Unsin... Nahotki, Onhazratim sag‘anasi yonida qolgan o‘sha qumg‘on bo‘lsa? Yo‘q... Lekin juda o‘xsharkan.

Temirchilik buyumlari. Bular “O‘tmishdan ertaklar” kitobidagi o‘sha temir-taqalarmi? Bosqon, qisqichlar, bolg‘alar, uy-ro‘zg‘or anjomlarini, tig‘li asboblarni o‘tkirlash uchun ishlatiladigan uskuna-charx, choynak, suv saqlanadigan idishlar va shu kabi ro‘zg‘or buyumlari... Bu eksponatlarning har biri “o‘tmishdan ertak” so‘zlaydi.

Bu ko‘zoynakni taniganlar bormi? Nima-nima? Chexovniki? Ts-s... Jim! G‘oyibdan kelayotgan ovozni tinglang: “Mana buni taqib, o‘z xalqing o‘tmishiga nazar sol!” Yaxshi! Ammo yana bir gap, qadrli to‘tizabon muxbirlar, marhamat qilib, sevimli klassigimiz haqida so‘z borganda “O‘zbekning Chexovi!” deyishni bas qilsalar. Ko‘zoynagini bergan bo‘lsa, o‘ziga! Abdulla Qahhor – mustaqil ijodkor! Uning shuhrati birovning obro‘siga muhtoj emas...

Muzeyga qaytamiz. Xo‘sh, birinchi xona “ko‘rib” turganingizdek, “Abdulla Qahhor hayoti” deb nomlangan. Devorlarda adibning bolalik, o‘smirlik, talabalik yillaridan tortib, umrining oxirgi kunlarida olingan fotosuratlar osilgan. Ular ichida yozuvchining zahmatkash onasi Rohatoy ayaning surati alohida ahamiyatga ega. Iye, mana bu nima? “Zinger” tikuv mashinasi? Bunaqasini birinchi marta “Sen yetim emassan” filmida ko‘rganman. Endi “tirigini” ko‘rib turishim. Usta Abduqahhorga “Zinger boy” deb nom qo‘yishlariga sabab bo‘lgan uskuna shumidi? Ajabo!

Muzey ikki memorial xonaga ega. Biri mehmonxona, ikkinchisi ijodxona. Undagi buyumlar va kutubxona adib hayotligida qanday bo‘lsa, shunday saqlangan. Hatto stoldagi kundalik ham kecha yozilgandek turibdi.

Bu yerga kelgach, to‘yib-to‘yib nafas olish esdan chiqmasin. Uydan yigirmanchi asr qizg‘in adabiy muhitining muborak havosi ufurib turibdi.

Navbatdagi bo‘lim naqd galereya! Bu zaldan Abdulla Qahhor ijodiga mansub bo‘lgan “Tobutdan tovush”, “Ayajonlarim”, “Sinchalak”, “Shohi so‘zana” kabi asarlarning suratdagi talqini hamda spektakllar uchun yaratilgan dekoratsiyalarning fotosuratlari joy olgan. Ancha-muncha ish qilingan. Endi norasmiy nomlangan “sovg‘alar zali”ga marhamat. Nomidan ma’lum, turli mamlakatlar, ijodiy uchrashuvlar, yubileylarda olingan va berilgan estalik tuhfalari burchak-burchakda qo‘r to‘kib turibdi. Undan kichik hovliga chiqamiz. Beixtiyor ko‘zingiz xurmo daraxtiga tushadi. Asarlarini hatto 18 martalab qayta-qayta ko‘chirgan adibga o‘z mevalarini tortiq qilgan, yozuvchiga kayfiyat va kuch bergan mo‘tabar daraxt.

Ikkinchi qavat adib ijodiga bag‘ishlangan. Kiraverishda ro‘parada “Mushtum” jurnalida ishlagan kezlarida chop etilgan materiallar joylangan. Uning yonida yozuvchining matbuotda e’lon qilingan ilk asarlari o‘rin olgan. Masalan, “Dardakdan chiqqan qahramon”, “Sakkiz botir”, “Qanotsiz chittak”, “Tobutdan tovush”, shuningdek, tojik tilida nashr etilgan hikoyalar to‘plami bor. Muzey xodimlarining aytishicha, Abdulla Qahhor tojik tilini Kibriyo Qahhorova yordamida o‘rgangan. O‘z navbatida Kibriyo Qahhorova ham o‘zbek tilini Abdulla Qahhor yordamida mukammal o‘zlashtirgan. Kibriyo Qahhorova Tojikistonda o‘qib yurgan kezlari Sadriddin Ayniyga shogird bo‘lgan. Abdulla Qahhor ba’zan ijodning shirin charchog‘ini yengish uchun fors-tojik adabiyotining bilimdoni bo‘lgan turmush o‘rtog‘ini yoniga chorlab, Bedildan, Hofizdan, Sa’diy Sheroziydan g‘azallar aytib berishini so‘ragan. Adib vafot etganda “Urush va tinchlik”ning oxirgi tomi tarjima jarayonida edi. “Muhabbat” asari tugamay qolgandi. Umr yo‘ldoshining ishini munosib tarzda yakunlagan, uy-muzey tashkil etilishi uchun yelib-yugurgan, adib va uning ijodiga aloqador bo‘lgan ashyolarni asrab-avaylagan Kibriyo Qahhorovaning mehnatlari tahsinga loyiq.

Bu uyda nega ular oxirgi o‘n yilini o‘tkazgan? Undan avval qayerda yashashgan, degan savol tug‘iladi. Zamondoshlari Abdulla Qahhorni juda shogirdparvar edi, deb eslashadi. Undan avval adibga berilgan ikkita uyni shogirdlariga sovg‘a qilgan.

Muzey xodimlarining aytishicha, eksponatlar tez-tez almashtirib turiladi. Ya’ni, muzey arxivida turgan buyumlar tashqariga olib chiqiladi va eskilari saqlash joyiga qaytadi. Bu esa talabalar, sayyohlar va mustaqil tadqiqotchilar qiziqishini yanada oshiradi. Kutubxonada besh yuzdan ortiq jurnallar va uch mingga yaqin kitoblar saqlanadi. Ularning hammasini Abdulla Qahhor bir necha marta o‘qib chiqqan. Har bir sahifasiga belgi qo‘ygan. Ayniqsa, Chexovning 22 tomli kitobini uch marta o‘qigan. Bu yerda o‘zbek va fors-tojik mumtoz adabiyoti namunalarining noyob nusxalari, XIX asrning ikkinchi choragida Moskva va Sankt-Peterburgda chop etilgan kitoblar ham bor. Yozuvchining ilk kitoblaridan tortib turli yillarda chiqarilgan kitob nashrlari, qardosh xalqlar va chet tillarda chop etilgan asarlari, adib hayoti va ijodi haqidagi ilmiy-tanqidiy ishlar, xotiralar kutubxonaning alohida javonida saqlanadi.

Umuman olganda, mazkur uy-muzey – Abdulla Qahhor va Kibriyo Qahhorova faoliyatiga qiziquvchilar, o‘tgan asr o‘zbek adabiyoti nafasini his qilmoqchi bo‘lganlar uchun qimmatli manzil. Xullas, keling, ko‘ring, xotirlang...

Nozima HABIBULLAYEVA

IBRAT

O‘zbekning piyolasi



Bilmayman, qaydan kelib bizga ilashgan odat – o‘zbeklarda ham nonushta qahvasiz tatimaydigan bo‘lgan. Qahva idishlardan foydalanish esa xuddiki, ming yillardan davom etayotgandek yoki shu idishdan boshqasiga quyib ichsak, tomog‘imizdan o‘tmaydigandek go‘yo. Bir-biriga rasmlar tushirilgan qahva idishlari sovg‘a qilish urfi avj olgani sari, ko‘pchilik qatori biz ham eldan qolmaslikka tirishamiz. Mayli-da, nimasi yomon, yoqimli odat ekan-ku, deb xursand bo‘lib ham qo‘yamiz.
Yaqin-yaqingacha bizning uyimizda ham shunday odat bor edi.



Oshxona idishlari javonida oilamiz a’zolarining tug‘ilgan oyi taqvimiga qarab (masalan, tarozi, o‘qotar, yo‘lbars) ramziy suratlari yoki tanlangan fotokollajlar tushirilgan qahva idishlari qator terilib turardi. Komiljon akam (Komil Avaz) ko‘k choyni yoqtirgani bois qahvani kam ichardilar. Har-har zamonda sutli qahva damlashimni so‘rardilar va oddiy chashkaga damlab kelganim uchunmi, qaynoqqina qahvani piyolaga quyib olardilar. Bir kuni Komiljon akam uchun ataylab u kishining tug‘ilgan oyi taqvim surati tushirilgan chashka sotib olib, o‘zlariga tantanavor taqdim etdim. Xursand bo‘lganini bildirib, qabul qildilar. O‘sha kundan keyin qahva ichadigan bo‘lsalar, albatta, o‘zlariga atalgan o‘sha yangi idishda damlab beradigan bo‘ldim. Ammo yana o‘sha avvalgi harakat takrorlanadi. Chashkadagi qahvani ko‘tarib, piyolaga bo‘shatadilar va yana nonushta qilishda davom etadilar. Oxiri:

– Komiljon aka, men avvaliga sizning o‘zingizga atalgan qahva idishi bo‘lmagani uchun qahvani piyolada ichasiz deb o‘ylardim. Axir, ataylab tug‘ilgan oyingiz ramziy surati tushirilgan idish sotib oldim. Bundan xursand bo‘lgan edingiz. Lekin nega yana qahvani oddiy piyolaga quyib ichayotganingizni tushunolmadim. Yoki bu qahva idishi sizga yoqmadimi? – deb so‘radim.

– E, yo‘g‘-e, unday emas! Sen sovg‘a qilgan qahva idishi menga juda yoqadi, – dedilar va biroz ma’yuslanib so‘zida davom etdilar. – Shu... xotiralar ezginligimi, bilmadim. “Butirka” qamoqxonasida yotganimda choyni temir krujkada berishardi. Xonalar sovuq. Temir krujkadan issiq choyning hovuri oppoq bug‘ bo‘lib, yuqoriga o‘rlaydi. Qaynoq paytida ichib bo‘lmaydi, sovub qolgan choyni esa ichging kelmaydi. Har safar o‘sha temir krujkada choy ichganimda o‘zimizning sopoldan yasalgan o‘zbekcha piyolamizni qo‘msardim. Turmaning shundoq yonidagi issiqqina uylarda nonushta qilayotgan, ovqatlanayotgan odamlar chinni yoki sopol idishlarda bahuzur choy ichib, bir-biri bilan miriqib suhbatlashayotgan bo‘lsa kerak, deb o‘ylab qo‘yardim. Yuragim uvishardi. Bu yer qamoqxona – zax va beton devorlar, mog‘or hidi anqigan ko‘rpa-to‘shak, choy va ovqat uchun temir idishlar, bari-barisi haq-u nohaq qamalgan odamlarning erkini cheklash va ruhiy kamsitishga mo‘ljallanganini anglash og‘ir edi. Markazdagi ayrim korchalonlar unvon va boylik ilinjida bizning xalqimizni “paxta ishi” degan siyosiy qatag‘on tuzog‘iga tushirgani, ming uringaning bilan o‘zingning aybsiz ekaningni isbotlay olmasliging, buning ularga zarracha qizig‘i yo‘qligini his qilish battar azob berar edi. Ba’zilar “ko‘pga kelgan to‘y-da, ilojimiz qancha?” deb o‘zini ovutgan bo‘lardi. Lekin men bunday nohaqlikka toqat qilolmasdim, o‘zimni alday olmasdim. Axir, tog‘ni ursa talqon qiladigan qirq uch yoshda edim... Kun demay, tun demay, chin g‘ayrat bilan ishladim. Hatto, ish deb ustimda chang va ter hididan uniqqan kiyimlarimni almashtirib kelishga vaqtni qizg‘anardim. Negaki, zavod ishi o‘ta og‘ir va xavotirli edi. U davrda davlatga paxta yetkazib berish ishini nafaqat respublika, balki Moskvadan turib, nazorat qilishardi. Bir kuni obkomga majlisga chaqirishdi. Bormasam bo‘lmaydi, talab va intizom qat’iy! Shu majlisdan chiqib, hatto uyga, ota-onamni, bolalarni ko‘rishga o‘tmadim. To‘g‘ri zavodga keldim. Darvozadan kirsam, ishchilarning ba’zisi bir joyga to‘p bo‘lib olgan, ba’zilari to‘zg‘ib, yugurgilab yurishibdi. Bilsam, bir ishchimizning qo‘lini stanok qirqib yuborgan ekan. 22 yoshli yigit, lekin endi bir qo‘lsiz, nogiron! Men bir umr uning, oilasining oldida o‘zimni aybdor sezdim va shu yoshimga qadar ham ulardan xabar olib turishni burchim deb bildim...

U so‘zlashdan to‘xtab biroz yerga qarab o‘tirdi-da, oldidagi paxta gulli piyolani qo‘liga olib:

– Aybga buyurma, singlim, birgina qahva idishini deb o‘tmishga o‘rlab ketdim chog‘i. Yaxshiyam, yurtimiz mustaqil bo‘ldi, biz oqlandik. Yagona tilagim, hamisha adolat bosh bayrog‘imiz bo‘lib, el boshida hilpirab tursin! Tinch yurtda to‘ylar ko‘paysin-u, piyolalar taftli choyga to‘la bo‘lsin! – dedilar tabassum bilan.

O‘sha suhbatimizdan keyin biz ham choy va qahvani o‘zimizning, o‘zbegimning paxta gulli idishlarida ichadigan bo‘ldik.


Sayyora JABBORZODA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

YAXSHILAR YODI

El orasida “Yaxshidan bog‘ qoladi” degan naql bor. Bu fikrni Milliy matbuot markazida marhum jurnalist Sohibjon Alijonov xotirasiga bag‘ishlangan “Bizni qaritolmas yillar, zamonlar...” kitobi taqdimotiga yig‘ilganlar ham tasdiqlashi shubhasiz. “Oltin meros press” nashriyotida chop etilgan mazkur kitob ikki qismdan iborat. Birinchi qismdan muallifning turli yillarda gazeta va jurnallarda chop etilgan, ko‘p o‘tmay omma e’tibori va e’tirofiga sazovor bo‘lgan maqolalari hamda bir necha katta-kichik hikoyalari, ikkinchi qismdan uning hamkasblari, yaqinlari va maslakdoshlari yozgan turli xotiralar joy olgan. Ularda ijodkorning oila a’zolari, hamkasblari, ustoz va shogirdlariga bo‘lgan munosabati, gazeta va televideniyeda ishlagan paytlaridagi esda qolarli voqealar bayon etilgan.

Quyida kitob taqdimotida ishtirok etgan ustoz jurnalist Ahmadjon Meliboyevning Sohibjon Alijonov bilan bog‘liq xotiralarini e’tiboringizga havola etmoqdamiz.

TAHRIRIYAT



SOHIBJONGA BUYURGAN SARLAVHA

Ijodkor hayotida shunday holatlar ham yuz beradiki, qalami sayroqi bo‘lsa-da, boshini egib, sukutga botadi. Jumlani ilgani ilgak topolmay qoladi. So‘z so‘zga ulanmaydi, fikr quyulib kelaveradi-yu ammo qog‘ozga ko‘chganlari ichingdagi to‘fonni ifodalashga ojizlik qiladi. Nogahon yaqin kishingni, do‘st-qadrdoningni yo‘qotganingda bu og‘ir ayriliq alamidan hushing boshingdan uchadi.

Oradan yil o‘tdi, ammo biz iste’dodli telejurnalist, samimiy do‘st, dilbar inson Sohibjon Alijonovni yo‘qotganimizga, endi u safimizga qaytmasligi, biz bilan davra qurmasligi, safarlarda birga bo‘lmasligimiz, zukko mushohadalari, ichakuzdi latifalari bilan gurunglarimizga fayz kiritolmasligiga ko‘nika olmay, endi-endi hayot nashidasini surayotgan edi-ya, endi-endi ochilayotgan edi-ya, o‘zi uchun yashash ostonasiga yaqinlashgan chog‘da-ya, degan adoqsiz armon girdobidamiz. Do‘stimizning umr daftari varaqlari ko‘p emas ekan, nachora, Allohning irodasiga bo‘ysunishdan o‘zga chora yo‘q.

Sohibjon 2000-yillarda bizning idoraga ishga keldi. Yangi jamoaga singib ketish hamisha ham oson kechmaydi. Ayniqsa, katta idorada. Har kim o‘z o‘rni, vazifasi va mas’uliyatini to‘g‘ri anglashi, qat’iyat va talab me’yorini bilishi, quruq buyruqbozlikka berilmasligi, qisqa qilib aytganda, kekkayib ketmasligi kerak. Sohibjon bu bosqichlardan qoqilmay-turtilmay o‘tdi. Jamoaga tez singib ketdi. Katta idoraga xos tartib-qoidalarni yaxshi o‘zlashtirdi, shu bilan birga, televideniyedan uzoqlashmadi, sobiq jamoasi, safdoshlari bilan doimiy aloqada bo‘ldi. Teledasturlar mavzusini kengaytirish, mazmun va shakl jihatidan boyitish yo‘llarini qidirdi, telejurnalistikaning boshqa ijodiy yo‘nalishlardan farq qiluvchi jihatlarini o‘rgandi, uning bu “boyligi” vaqti kelib yana teleekranga qaytganida o‘zi va jamoasi uchun juda-juda qo‘l keldi.

Bu dunyoda mashaqqatsiz erishiladigan hech bir yutuq yo‘q, aslida. Oddiy bir kasbning ham ming azobi-yu yana shuncha sabog‘i, past-balandliklari bor. Dunyo anglash qiyin bo‘lgan mavhum bir pallaga kirib bo‘lgan va bu jarayonda o‘zligini yo‘qotayotgan paytda teleekranga qaysi mavzuni olib chiqish kerag-u, qaysilaridan tiyilish lozimligini farqlash, jamiyat, odamlar hayotini bexato kuzatib borish oson ish emas. O‘zTVda bunday holatda qanday yo‘l tutish kerakligini biladigan ustozlar ko‘p. Sohibjon ular safiga dadil kirib bordi, quruq qo‘l bilan emas, o‘z o‘rni, ovozi, teleuslubi, ifoda (nutq) mahorati, ishontirish san’ati bilan kirib keldi. Bugun uning tasmalarda qolgan ko‘rsatuvlarini, efirda men bilan qilgan suhbatlarini qayta-qayta tomosha qilar ekanman, sog‘inch hissi vujudimni qamrab oladi.

Ko‘pni ko‘rgan momolarning deyarli unut bo‘lib borayotgan bir udumi yodimga tushadi – lo‘ppi yuzli chaqaloqlar ko‘zikib ketmasligi uchun ularning yuzlariga jindek qorakuya surib qo‘yishardi. Biz – Sohibjonning yaqinlari, shu udumdan o‘ziga bildirmay gohgoh foydalanib tursak bo‘larkan-da, deyman. Chunki u ishda, oilada, do‘stlar davrasida, xizmat safarlari-yu yig‘in-mashvaratlarda havas qilgulik ishchanligi, murakkab vaziyatda gapni gapga qovushtirishi, zehn-zakovati bilan boshqalardan ajralib turar, nima ish qilish kerak, qanday yo‘l tutish lozimligini boshqalardan avvalroq fahmlar, ammo o‘zini ko‘rsatishga harakat qilmas, davra to‘riga, minbarlarga intilmas edi. Shunday bo‘lsa-da, unga havas qiluvchilar bilan birga, balkim, ozroq hasad qiluvchilar ham bo‘lgandir, chetroqqa o‘tib, do‘stimizning yutuqlariga quvonish o‘rniga, miyig‘larida yarim oshkor, yarim sirli kulib turishgandir, degan o‘yga boraman.

Sohibjon kuyunchak, jonsarak, bir joyda harakatsiz turolmaydigan yigit edi. O‘ziniki qolib, boshqalarning muammolariga yechim qidirardi, g‘aroyib yo‘ltoparligi bor edi. Qoyil qolardik. Bir gal davradoshlar, odatimizga ko‘ra, yig‘ilishib, tog‘ sayriga chiqdik. Bir azamat tadbirkor qurgan dam olish uyida tunab, charchoq yozdik, yayradik. Dam olishning ko‘p va xo‘b imkoniyatlari mavjud bunday joylar faqat xorijda bo‘ladi, degan gap eskibdi: o‘zimizda ularnikidan ham zo‘rlari paydo bo‘libdi, marhamat, do‘stlar, jamoa, oila, mehmonlaringiz bilan kelib, huzur qiling, yayrang, tanangiz ham, ruhingiz ham orom olsin.



Shunday bo‘ldi ham. Rosa miriqdik. Ammo...

Ertasi kuni shaharga qaytish vaqtida kutilmagan bir kelishmovchilik yuzaga keldi: biz bu yerdagi dam olish vositalaridan foydalanishda vaqt va sanoqqa amal qilmabmiz. Hisob-kitob raqamlari chalkashib ketibdi. Xizmat ko‘rsatuvchilar “Yana faloncha so‘m to‘laysizlar”, deb turib olishdi. Ularni tushunish mumkin – hamma amal qiladigan preyskurant bor, arzon emas. Faqat... hammamiz birga harakat qilganimizda ham so‘ralayotgan mablag‘ni to‘plashning iloji yo‘q. Bir-birimizga sirli qaraymiz, ammo hech kimdan sado chiqmaydi. Shunda Sohibjon “Bu nozik masalani menga qo‘yib beringlar”, dedi-da, yeng shimarib ishga kirishib ketdi. Jiddiy, ehtirosli muzokara boshlandi. Tilimizning shirinligi, muomala odobimizning boyligiga nima yetsin – oradan ko‘p o‘tmay qo‘shimcha xarajatsiz tarixiy kelishuvga erishdik.

Faqat shu emas, Sohibjon latifa aytishda, davrani qizitishda ustasi faranglardan edi. U bo‘lib o‘tgan kulgili bir voqeani hikoya qilar ekan, ko‘z o‘ngingizga o‘sha voqeani bor bo‘y-basti bilan keltira olardi. Mana, uning ko‘p yillardan beri davradoshlar og‘zidan tushmay kelayotgan bir hangoma hikoyasi: “Sohibjonning hamqishlog‘i bir necha yil mablag‘ yig‘ib, yengil mashina sotib olibdi. Har kuni ertalab tanish-bilishlarining ko‘zini o‘ynatib, rulda viqor bilan o‘tirgancha ularning yonidan vizillab o‘tib, Qo‘qonga ketar ekan. Bitta tanishi: “Hoy, noinsof, bir o‘zing ketmay, meni ham olib ketsang-chi, bir joyga boramiz-ku, axir, yo‘lingga chiqib turaman”, degan ekan, u “Bilasan-ku, chap ko‘zim yaxshi ishlamaydi, sen yo‘lning o‘ng tomoniga o‘tib tur”, debdi. Tanishi shunday qilibdi ham. Mashina sotib olgan yigit esa uni ko‘rmaganga olib, yonidan vizillab o‘tib ketaveribdi. “Hoy, yaramas, o‘ng tomonga o‘tib tur deding, bir haftadan beri o‘tib turibman, nega to‘xtamayapsan, yo meni ko‘rmayapsanmi?”, deb xafa bo‘lgan ekan, mashinali yigit bamaylixotir: “Ko‘ryapman, ammo o‘ng tomonda turganingdan seni Qo‘qongamas, Bag‘dodga ketyapti shekilli, deb o‘ylabman-da”, dermish.

Sohibjon bilan marshrutli taksida ro‘y bergan g‘aroyib hangomani yoki traktorchi yigitning qishloqqa kelgan Iqbol Mirzoga ziyofat bermoqchi bo‘lganini yozish kerak emas – eshitish kerak. Men ham hangoma aytuvchilar safida borman, bu borada Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Temur Ubaydulloga yaqin tursam kerak. Ammo Sohibjonning latifa aytish mahorati o‘zgacha edi-da. U har holat ifodasini san’at darajasiga yetkazish, so‘zni harakatga aylantirish qobiliyatiga ega edi.

Insonning kamolga yetishi u yashab o‘tgan yillar sanog‘iga hamisha ham mos kelavermaydi. Kimdir erta, kimdir kech yetiladi. Birov qirq yoshda, boshqa birov yana shuncha yil yashaganidan keyingina “ochiladi”. Ochilmay o‘tib ketganlar qancha. Bundan bir necha yil avval marhum Anvar qori Tursunov haqidagi xotira kitobga maqola yozib, unga “Erta gullagan donishmand” degan sarlavha qo‘ygan edim. Maqola kitobda boshqacha sarlavha bilan chiqdi. Mening sarlavham Anvar qori kabi sal ertaroq gullagan Sohibjonga buyurgan ekan. Bu gapda aslo mubolag‘a yo‘q. Biz yosh donishmand do‘stimizni yo‘qotdik.

Shunday deyman-u, sarlavhani ushbu maqola tepasiga qo‘ygim kelmadi. Xotirasiga ko‘z tegmasin deyman-da.

Ahmadjon MELIBOYEV

ADABIYOT VA ABADIYAT

“AMIR TEMUR AVLODIMAN, XOH BO‘LSAM-DA OZARI”

“Menga Nizomiyning asarlarini Navoiyning ona tiliga, Navoiyning asarlarini Nizomiyning ona tiliga o‘girish baxti nasib etdi. Men baxtiyor emasmanmi? Qalamning ilohiy qudrati bilan yozgan asarlarim o‘zbek xalqiga manzur bo‘lsa, men o‘zimni baxtli deb hisoblamaymanmi?” degan edi Maqsud Shayxzoda.

Ozarbayjonda tug‘ilgan, Turkistonga surgun qilingan qahramonimiz aynan mana shu tuproqda izzat-hurmat, shon-shuhrat sohibi o‘laroq o‘zbek adabiyotining yetuk namoyandasiga aylandi. Maqsud Shayxzoda bir emas, ikki marta surgun qilingan: birinchisida ona Vatanidan Turkistonga, keyingisida esa, keksalik paytida O‘zbekistondan Sibirga...



Maqsud Shayxzoda 1908-yil 7-noyabr kuni Ozarbayjonning ko‘hna madaniyat markazlaridan biri – Ag‘dash (Oqtosh)da tug‘ilgan. U oilaning to‘ng‘ich farzandi edi. Undan keyin yana to‘rt go‘dak dunyoga keldi. Otasi Masim ota, onasi Fotima xonim ham katta o‘g‘illari boshiga ne kunlar tushishini, Ozarbayjondan O‘zbekistonga borib, katta shoir bo‘lib yetishishini bilmasdi.

Maqsud ilk saboqni Oqtoshda Muxtor afandining “Rushdiya” maktabida olgan. U o‘smirlik paytlaridan she’r yoza boshlagan. 1920–1925-yillarda Abdulla Shoiq, Husayn Jovid, Jabbor Afandizoda, Madina xonim Qiyosbeyli, Jamolbey Jabroilbeyli singari o‘z davrining taniqli ziyolilaridan saboq oladi. 1925–1927-yillarda Darbandda muallimlik qiladi va Bokudagi pedagogika institutida sirtdan tahsil ko‘radi. Bu yerda V.Mayakovskiy, Nozim Hikmat singari taniqli shoirlar bilan uchrashadi.

Ma’lumki, o‘ttizdan ortiq millat, xalq va etnik guruhlar yashaydigan bu hududda asrlar davomida turkiy til asosiy aloqa vositasi hisoblangan. Sovet hukumati Dog‘istonni u bilan tarixan chambarchas bog‘liq bo‘lgan Ozarbayjonga emas, Rossiya tarkibiga kiritgach, o‘zaro aloqalar tili maqomini rus tili egallay boshlagandi. Bunga ayrim hukumat ma’murlari ham e’tiroz bildirar, ular markaziy hukumatga murojaat qilib, Dog‘istonni Ozarbayjon tarkibiga qo‘shishni istashardi. Tabiiyki, bunday odamlar qamoqqa olinar yoki surgun qilinar edi.

1927-yilning iyun-iyul oylarida Dog‘iston sudining qarori bilan Maqsud Shayxzoda va uning muallim o‘rtoqlari Muhammad Fayziy, Adham Fayziy aksilinqilobiy harakatda ayblanib qamoqqa olinadi. O‘sha yilning 6-dekabr kuni e’lon qilingan 15 sahifadan iborat aybnomada shunday deyiladi: “Maqsud Shayxzoda va uning do‘stlari “ijtimoiy xavfli unsur” sifatida qamoqqa olinsin va “siyosiy qurilish”ga jalb qilinsin”.

Sud qaroriga ko‘ra, Maqsud Shayxzoda Boku, Tbilisi va Moskvadan boshqa istagan shaharda surgun muddatini o‘tashi mumkin edi. Maxachqal’adagi 9 oylik qamoqdan ozod qilingan Maqsud otasining istagi bilan Toshkentni tanlaydi. U 1928-yil fevral oyida O‘zbekistonga keladi. Toshkentga kelib, Yangiturk ko‘chasida yashagan Sobir Sharipovning uyini topib boradi va bir muddat o‘sha yerda yashaydi. So‘ng Qashqar mahallasida mehmonxona vazifasini o‘tab kelgan bir choyxonaga joylashadi. Toshkent vokzali yaqinida Narimon Narimonov nomidagi Ozarbayjon maktabida bir muddat bolalarga saboq beradi. Taxminan bir yil ichida Maqsud o‘zbek tilini to‘liq o‘zlashtirib oladi va o‘zbek maktablarida dars bera boshlaydi.

1928-yilning kuz oylarida Maqsud Shayxzoda O‘rta Osiyo davlat universitetining sharqshunoslik fakultetiga o‘qishga kiradi.

U bilan birga saboq olgan yozuvchi va tarjimon Mirzakalon Ismoiliy shoir bilan bog‘liq xotiralarida shunday yozgan edi:

“Maqsud o‘zbek tilida ozariy lahjada gapirardi. Ozar va turk so‘zlaridan faol foydalanardi. U chuqur savodi va insoniy fazilatlari uchun talabalar orasida katta hurmat qozongan edi. Maqsud havas va ehtirom bilan o‘zbek tili, tarixi, sharq madaniyatini o‘rgangandi. Darslar tugashi bilan ertangi kunga tayyorlana boshlar, kitob o‘qir, konspekt yozar, keyingi mavzular bilan bog‘liq kitoblarni titkilar, muallimlarga savollar hozirlardi. U savollarni o‘qituvchilarga yozma tarzda berar, bu esa, domlamiz Muxtor Avezovga juda yoqardi. Maqsud nima uchun savollarni yozma tarzda berishining sababini o‘rgangach, domlalarimiz lol qolgandi. Maqsud muallim savolning javobini bilmasa, boshqa talabalar qarshisida noqulay vaziyatda qolmasin uchun savollarni yozma tarzda berarkan”.

Maqsud Shayxzoda Toshkentda o‘ziga bir qancha do‘stlar, hamfikrlar topadi. Kelgusida katta yozuvchilar qatoridan joy olgan G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor singari yoshlar bilan tanishib oladi. “Qizil O‘zbekiston”, “Sharq haqiqati” va “Yosh leninchi” gazetalarida ishlaydi. 1933–1935-yillarda shoir O‘zbekiston SSR Xalq komissarlari soveti qoshidagi Fan qo‘mitasida aspiranturada o‘qiydi. Pushkin nomidagi til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo‘lib ishlaydi.

1932-yilda shoirning “Loyiq soqchi”, 1933-yilda “O‘n she’r”, “Uchinchi kitob”, “Undoshlarim”, 1935-yilda “Respublika”, 1937-yilda “Yangi davron”, “O‘n ikki”, 1938-yilda “Bayram qo‘shiqlari”, 1942-yilda “Kurash nechun?”, 1948-yilda “Vatan she’rlari” kitoblari chop etiladi.

Shoir 1938-yildan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida dars berishni boshlaydi.

Adibning “Jaloliddin Manguberdi”, “Mirzo Ulug‘bek” fojialari, “Toshkentnoma”, “Oqsoqol” kitoblari o‘quvchilar tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinadi. Ayniqsa, “Jaloliddin Manguberdi” fojiasi “o‘zbek adabiyotidagi muhim hodisa” sifatida baholangan. Spektakl sahnaga qo‘yilgan paytda 36 yoshli Maqsud Shayxzoda juda katta shon-shuhrat qozonadi.

Maqsud Shayxzodaning do‘sti, taniqli aktyor, “Jaloliddin Manguberdi” dramasida bosh rolni ijro etgan Shukur Burxonov shunday yozadi: “Shayx aka mukammal hayotni yashab o‘tdi. Bu hayot yillar, asrlar o‘tsa-da, o‘rnak qilib ko‘rsatilaveradi. U hamma bilan juda samimiy munosabatda bo‘lardi. O‘zi ham juda kelishgan, salobatli odam edi. Har doim to‘g‘ri gapirar, ko‘pincha uning gaplarida, albatta, nimadir yashirin ma’no kasb etardi”.

Tassufki, taqdirning g‘alati burilishlari ham bo‘ladi. Maqsud Shayxzodani shon-shuhratga burkagan “Jaloliddin Manguberdi” uning Sibirga surgun qilinishida ham katta o‘rin tutadi. Bu borada chaqimchilarning “xizmati” katta bo‘lgan. Go‘yo muallif asarda salbiy gruzin obrazini yaratarkan, u Stalinni va gruzin xalqini nazarda tutgan emish. Shu tariqa 1944-yilda sud hukmi bilan Maqsud Shayxzoda 25 yilga surgun qilinadi va Sibirga yuboriladi.


1953-yilda Stalin vafotidan keyin Maqsud Shayxzodaning onasi SSSR Oliy soveti Rayosat kengashiga ketma-ket o‘g‘lining afv etilishi bilan bog‘liq maktublar yo‘llaydi. Surgunga yuborilgan paytida shundog‘am Shayxzodaning begunoh ekanini bilgan imperiya ma’murlari uni ozod qilishadi. Jazo muddatining uchdan bir qismini o‘tab bo‘lgan shoir Toshkentga qaytadi va ijod qilishda davom etadi. Chala qolgan “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasini yakunlaydi. Asar asosida o‘zbek rejissyori Latif Fayziyev 1958-yilda “Ulug‘bek yulduzi” filmini suratga oladi.

Akademik Naim Karimovning yozishicha, surgundan xastalanib qaytgan shoir vaqti-vaqti bilan davolanishga majbur bo‘lgan. U o‘tgan asrning 60-yillarida sog‘lig‘ini tiklash va dekadalarda ishtirok etish maqsadida bir necha marotaba Moskvaga borgan. Imkon topishi bilan M.Gorkiy nomidagi adabiyot institutiga borib, u yerda tahsil olayotgan o‘zbek talabalarining ahvoli bilan qiziqqan, ular bilan suhbat qurgan, moddiy taraflama yordam bergan.

Maqsud Shayxzoda Sohibqiron Amir Temur nomi tuhmatlarga burkangan bir davrda quyidagi misralarni baralla ayta olgan edi:

Amir Temur avlodiman, xoh bo‘lsam-da ozari,
Tabarrukdir ziyoratgoh menga uning mozori,
Ulug‘bekning poyin izlab Zarafshondan o‘tganman,
Samarqandning tarixini yuragimga bitganman...

Rustam JABBOROV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori



MUALLIM SHAKURIY IZTIROBLARI

Boshlanishi 1-sahifada.

Shu sababli maktabdor o‘z maktabi manzilgohini tez-tez o‘zgartirib, ko‘chib yurishga majbur bo‘ladi. Biroq maktab aynan bolalarni tezda savodxon qilish jihatidan, yuksak darajada diniy va dunyoviy bilim berishi bilan nafaqat Samarqand atrofida, balki butun Turkistonda ma’lum-u mashhur edi.

Mo‘min Fattoyevning “Atoqli pedagoglarimiz” kitobida yozilishicha, 1923-yil Abduqodir Shakuriy nomi 20 yillik faoliyatining e’tirofi sifatida “Pravda” gazetasida sobiq ittifoqdagi 27 nafar eng ilg‘or pedagog qatorida sanab o‘tiladi. Ularning o‘n beshtasi e’zozlanib, turli mukofotlar beriladi, jumladan, Abduqodir Shakuriyga ham. 1926-yili “Maorif va o‘qituvchi” jurnalining “Tarjimayi hol” ruknida bosilgan Tursunqulning “25 yillik pedagog” maqolasida: *“Chorak asrlik pedagogimiz Shakuriyga biz ko‘p narsalar qilsak arziydir. Shakuriyning xizmati butun boshqachadir. Shakuriy 25 yil amalda ishlagandir. U o‘z ishining mevalarini bizga taqdim etkan, yana etmakdadir. Zamonida hech bir ochiq fikrli, Samarqandning hech bir jadidi bu qadar tahdid etilmagan, ranjitilmagandir. Chunki uning maktabi yangi, savodli, bilimli, ongli kimsalar yetishdirdi. U har yil xurofot va nodonliq o‘rdusining oldig‘a yangi kuchlar tayyorlab tizdi”,* degan muhim fikrlar bayon qilinadi.

Bu e’tirof muallimning obro‘-e’tiboriga munosib edi, albatta. Ammo bizdagi tasavvur mustabid tuzum Shakuriyni ardoqlagan, mukofotlagan, hurmat-izzatini joyiga qo‘ygan tarzida qotib qolishi aslo mumkin emas. Mukofotlagan ham, bir kun kelib qon qaqshatgan ham. Faktlar o‘jardir. Haqiqiy mudhish manzaralarni namoyon qiladigan dalillar sun’iy shohona libos-larni xush ko‘rmaydi.

Sobiq GPU hujjatgohida P-13856-raqamli “Abdusaidov Q.H. va boshqalar” degan ikki jilddan iborat hujjatlar taxlami saqlanadi.

Undan tergovga tortilgan Qozi Haydarbek Abdusaidov, Toppeldi Rahmonberdiyev, Abubakir Abdulxayrov, Abduaziz Abdug‘afforov, Kamoliddin Husanov, Mirzaxo‘ja O‘rinxo‘jayev, Rojiy Nazretdinov, To‘laboy Jo‘raboyev, Sulton Haqberdiyev, Zayniddin Nazretdinov kabi shaxslar qatorida o‘n birinchi bo‘lib Abduqodir Shakuriyga doir hujjatlar ham o‘rin olgan.

1937-yilning 5-avgust kuni kichik leytenantlar – Xotyakov, Afanasev imzolari bilan Abduqodir Shakuriy domla O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bo‘yicha ayblanib, uni hibsga olish to‘g‘risida qaror chiqariladi.

Mudhish “uchlik”ning tartibiga binoan 1937-yil 7-avgust kuni bo‘lgan tergovda Shakuriy o‘z tanish-bilishlaridan 3-4 kishining nomini sanab beradi.

Darvoqe, rasmiy tergov bayonnomasida muallimning 1875-yili Rajabamin qishlog‘ida tavallud topgani, o‘sha joyda yashayotgani qayd etilgan edi. Oilaviy sharoitiga doir ma’lumotlardan esa quyidagilarni o‘qiymiz: xotini Muyassara 38 yosh, qizi Muattara 18 yosh, o‘g‘illari – Tal’at 16 yosh, Midhat 13 yosh, Rif’at 6 yosh, Nuzhat 1 yosh. (*Abduqodir Shakuriyning avlodlari hozirda Samarqandda istiqomat qiladi. Mazkur ro‘yxatdagi ismlar hujjatda qanday bitilgan bo‘lsa, shundayligicha olindi* – **B.K.**).

Muallim ikkinchi marta 1937-yil 29-avgust kuni tergov qilinadi. To‘g‘risi, hujjatlarga qarab bu maxfiy jarayonning ikir-chikirlarini to‘la-to‘kis tasavvur etish qiyin, ammo nimalarnidir sezish mumkin. Har holda haqiqat uchqunlarini, ayrim manba-dalillar ahamiyatini nazarda tutgan holda o‘sha kundagi nisbatan batafsil yozilgan savol-javob jarayonini aziz o‘quvchilar hukmiga havola qilish o‘rinli deb bildik:

– Sizning otangiz kim? Uning tomorqasi qancha edi va unda kim ishlagan? Otangiz qachon vafot etgan?

– Mening otam mulla-imom edilar, 20 tanobcha yeri, sigiri, otlari bor edi. Ammo ularning sonini hozir eslay olmayman. Uning yeriga kimlar ishlov bergani ham esimda yo‘q.

Otam – 1884-yili, ya’ni men 9 yoshdalik paytimda vafot etgan.

Onam – bibixalfa musulmon maktabida muallima edi. Maktabni o‘z uyimizda ochgan. Unda yoz oylari 70 ta, qishda 30 ta bola tahsil olardi. Onam 1914-1915-yillari (hujjatda negadir shu tarzda noaniq yozilgan – ***B.K.****) vafot etdi.*

– Siz inqilobdan oldin va undan keyin nima bilan mashg‘ul bo‘lgansiz? Sizning tomorqangiz – xo‘jaligingiz qanday edi?

– Men avval onamdan tahsil oldim. So‘ngra Tillaqori hamda Orifeshonboy madrasalarida o‘qidim. Musulmoncha o‘rta ma’lumot olgach, Samarqandda ma’rifatchi maktabi ochishga qaror berdim va shu maqsadda Qo‘qonga bordim. U yerda O‘rta Osiyodagi yagona – birinchi jadid maktabi bor edi. (Bu maktab 1898-yili tatar ziyolisi Salohiddin Majidiy tomonidan ochilgan. Shakuriy shu maktabni borib ko‘rgan – ***B.K.****) O‘n kun davomida maktab bilan tanishdim. Samarqandga kelib Rajabamin mahallasida maktab ochdim. Bu Samarqand bo‘yicha birinchi, O‘rta Osiyo bo‘yicha ikkinchi jadid maktabi edi. Xullas, men Samarqanddagi birinchi jadid maktabining tashkilotchisi edim. Maktabda 150 tacha bola tahsil olardi. Tomorqam yo‘q edi.*

Inqilobdan so‘ng uch tanob bog‘im, bir sigir-buzoq va bitta eshagim bor edi.

– Maktab ochgandan so‘ng siz yana qayerlarga bordingiz?

– Men maktabni ochganimdan so‘ng 1903-yili Orenburg, Qozon shaharlariga, 1911-yili Turkiyaning Istanbul shahriga bordim. Istanbulda ikki yarim oycha turib jadid maktablaridagi o‘qitish tartiboti bilan tanishdim.

Shu o‘rinda muallimning xos shogirdlaridan Vadud Mahmud qalamiga mansub Abduqodir Shakuriyning Istanbul safari bilan bog‘liq xotirani yana yodga olish zarur. Muallim Istanbulda turkistonlik talabalar bilan, jumladan, allaqachon mashhur bo‘lib ulgurgan Abdurauf Fitrat bilan tanishadi. Yurtiga qaytishda uning “Sayha” she’rlar majmuasidan bir necha o‘n donasini choponining astari orasiga joylab, chor ma’murlariga sezdirmasdan chegaradan olib o‘tadi. Muallimning shu sa’y-harakati tufayli “Sayha” Turkiston talabalari hamda ziyolilari orasida keng tarqaladi. Muallimning ma’rifatparvarlik jasoratiga tahsin aytamiz va bir oz tin olib, yana tergov hujjatlariga qaytamiz.

– Siz keyingi paytlarda nimalar bilan shug‘ullanmoqdasiz va maktabdagi faoliyatingiz qancha davom etdi?

– Mening ma’rifatchi maktabim 1925-yilgacha faoliyat ko‘rsatdi, so‘ng yopildi. Shahar maorif bo‘limi uch yillik maktablar ochdi. Keyinchalik men bog‘bonlik bilan shug‘ullandim. Uch tanob bog‘im bor. Bog‘da o‘zim ishlayman. Har yilgi mavsumda yordamchi ham yollayman. 1937-yili mening bog‘imda Allaberdi Mavlonberdiyev ishladi. Mevalarni bozorda o‘zim sotaman.

Demak, Shakuriy domla umrining o‘sha mash’um onlariga qadar uzluksiz muallimlik qilgan emas. Balki jismoniy mehnat bilan mashg‘ul bo‘lgan. El-yurt boshiga, ziyolilar faoliyati ustiga balo-qazodek yopirilib kelgan va zulm-zo‘ravonlik asosida o‘zini mustahkamlayotgan sovetlar hukumati-stalinizm siyosati shakuriylarning jadidona faoliyati va umuman erkin nafas olishi uchun imkon bermaydi. Bu tarixiy haqiqat. Zotan, Shakuriy muallimning “aksilinqilobiy harakatlari” 1937-yilning o‘ziga kelib paydo bo‘lib qolmadi. Hujjatlarning guvohlik berishicha, maxsus tayinlangan “ko‘z-quloq”lar 1923-1924-yillardan boshlaboq muallimning har bir bosgan qadami yuzasidan kerakli tashkilotlarga ma’lumot yetkazib turadi. Ma’lumotlar Shakuriy domlaga doir taxlamlardan o‘rin olavergan va hatto sobiq o‘quvchilari bilan bo‘lgan munosabatlar, gap-gashtak mehmondorchilik yoxud ziyofatlar ham “ko‘z-quloq”lar nazaridan chetda qolmagan.

– Siz sobiq o‘quvchilaringizdan kimlar bilan qanday aloqada bo‘lgansiz?

– Sobiq talabalarimning hech biri bilan hech qanday aloqam yo‘q. Kim bilan uchrashsam, salomlashaman, xolos.

– Hamroqulbek Rajabov va uning oilasi bilan bog‘liq munosabatlaringiz to‘g‘risida so‘zlang.

– Hamroqulbek Rajabov rajabaminlik, mening maktabimda o‘qigan, mening tarbiyalanuvchim. Biroq hozirgi kunda u bilan ham hech qanday aloqam yo‘q. Mening bilishimcha, Hamroqulbek bosmachilarga boshchilik qilgan, bu harakatga barham berilgach, Afg‘onistonga qochib o‘tgan. Bundan boshqa narsani bilmayman.

– Siz aksilinqilobiy, millatchilik tashkiloti “Milliy Ittihod”ga qachon kirgansiz va sizni bu tashkilotga kim jalb qilgan edi?

– Men “Milliy Ittihod” a’zosi bo‘lgan emasman, meni bu tashkilotga hech kim jalb qilmagan va hatto men bu haqda eshitmaganman.

– 1937-yil 7-avgustda qabul qilingan qarorda sizga qo‘yilgan ayblovlar bo‘yicha o‘zingizni aybdor hisoblaysizmi? *(Bu qarorda Shakuriy aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti “Milliy Ittihod” a’zosi, antisovet targ‘ibotchi sifatida O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bo‘yicha ayblanadi* – **B.K.)**.

– Menga qo‘yilgan ayblarni mutlaqo tan olmayman...

Savol-javoblar oxirida mazkur tergovnoma “aybdor” so‘zlaridan to‘g‘ri yozilgani va o‘rischaga to‘g‘ri tarjima etilgani xususida Abduqodir Shakuriyning arabiy imlodagi imzosi bor. So‘ngra kichik leytenant, tergovchi Xotyakov imzo qo‘yadi.

Mazkur savol-javoblardan tergov jarayonidagi muhitni tasavvur etish uncha qiyin emas. Biroq oq qog‘ozga silliq yozilgan, haqiqatni past-baland turli darajada ifoda etgan bu hujjatlarda bir jihat bor – muhtaram jadid muallimi o‘ziga qo‘yilgan aybni tan olgan emas.

Tergov jarayonida muallim hech kim bilan yuzlashtirilmaydi. Aybdorning gunohini tasdiqlovchi guvohlar chaqirilmaydi. Hujjatlar taxlamida bunga doir manbalar yo‘q. Ayni chog‘da 29-avgustdagi savol-javob bilan tergov yakun topmaydi.

1937-yili 2-oktyabr kuni muallim bor-yo‘g‘i uchta savol asosida qisqa tergov qilinadi. Qandaydir sirlarni yashirganini va “Milliy Ittihod”ga a’zoligini bo‘yniga qo‘ymoqchi bo‘lishadi. Muallim barchasini qat’iy turib rad etadi. Tergovchi “Milliy Ittihod”chilar bilan rasmga tushganini ro‘kach qiladi. Muallim o‘rinli, ishorali, mantiqli javob beradi. Haqiqatan ham kim bilib o‘tiribdi rasmga tushayotgan bir guruh kishilar orasidan qaysi biri “Milliy Ittihod”chi ekanligini?!


Keyingi tergov 1937-yil 29-oktyabr kuni bo‘lib o‘tadi. Tergovchi endi Abduqodir Shakuriyga “1935-yili sizning uyingizda aksilinqilobchi Qozi Haydarbek Abdusaidov ishtirokida aksilinqilobiy maxsus majlis bo‘lib o‘tgan”, deydi. Muallim bu da’voni tan olmaydi. Ismi tilga olingan shaxs bilan keyingi yillari bog‘dorchilik masalalari yuzasidangina suhbatlashganini aytadi. “Sovetlarga qarshi bo‘lgansiz, turli targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borgansiz” mazmunidagi ayblarni ham bo‘yniga olmaydi.

Biroq bu inkorlar befoyda bo‘lgan. Chunki “uchlik” ishni allaqachon pishitib qo‘ygan: muallim baribir “aybdor” edi.

Xullas, hujjatlardagi haqiqat shuki, o‘z el-yurtining farzandlari kelajagi uchun jon chekkan muallim Abduqodir Shakuriy oxir-oqibat NKVD “uchlik” komissiyasining 1937-yil 21-noyabrdagi majlisi qaroriga binoan aksilinqilobiy faoliyati uchun o‘n yil muddatga ozodlikdan mahrum etiladi.

Jadid muallim Shakuriy vafoti (1943-yil)dan keyin – 1956-yil 27-avgustda mutlaqo aybsizligi tufayli O‘zbekiston Oliy sudining qaroriga ko‘ra oqlanadi.

Bahodir NURMUHAMMAD



XOTIRA AZIZ

QATAG‘ON QURBONLARI



(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Abdullajon Mamadalixo‘jayev – Kosonsoy rayoni, Ko‘kumboy qishlog‘idan. Millati o‘zbek. Madrasada o‘qigan, imomlik qilgan. Dehqonchilik bilan shug‘ullangan. O‘rtahol, savodli, sudlanmagan.

Dadamirza Abduvohidov – Kosonsoy rayoni, Ko‘kumboy qishlog‘idan. O‘zbek millatiga mansub. Madrasada tahsil olgan. Uylangan, sudlanmagan. Nosirxonto‘ra va Istambekning bosmachilik faoliyatlarini bila turib o‘z uyida yashirgan, oziq-ovqat bilan ta’minlagan. O‘zSSR JK 14–78-moddasida ko‘zda tutilgan jinoyatlarni sodir etishda ayblangan.

Muhiddinxon Shaidxonxo‘jayev – Yangiqo‘rg‘on rayoni, Bekobod qishlog‘idan. O‘zbek. Mulksiz, savodli, sudlanmagan. Nosirxonto‘raning safdoshi Hamroxo‘jani yashirgan va uning topshirig‘iga binoan Nosirxonto‘ra bilan uchrashish uchun Kosonsoy rayoniga borgan. O‘zSSR JK 14–78-moddasi bilan ayblangan.

Ahmadsho Muhammadiyev – Namangan shahridan. Sobiq savdogar, uy-joylarini ijaraga berishdan tushgan mablag‘ hisobiga tirikchilik qilgan. Diniy maktabni tugatgan, uylangan, sudlanmagan. Bosmachilarning yordamchisi sifatida ofitser Gumbinni Namangan shahriga kelishi bilan Samidullayevning aksilinqilobiy bosmachilik tashkiloti a’zolari bilan aloqasini ta’minlagan. O‘zSSR JK 14–78-moddasida qayd etilgan jinoyatlarni sodir etishda ayblangan.

Mulla Ahmadali Abdufattohov – Koson shahridan. Millati tojik. Savdogar oilasidan, uylangan, sudlanmagan. O‘zSSR JK 14–78-moddasi bilan ayblangan.

Abduxoliq Abdug‘afforov – Yangiqo‘rg‘on rayoni, Yangiqo‘rg‘on qishlog‘idan. Uylanmagan, savodli. Nosirxonto‘raning Ranjit yaqinidagi jangdagi mag‘lubiyatidan so‘ng faol askarlarini, jumladan, Abdulhamidni o‘z masjidida yashirgan va Farg‘ona vodiysining turli shaharlarida yashirinishlari uchun ularni joy manzillari bilan ta’minlagan. O‘zSSR JK 14–78-moddasida ko‘zda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda ayblangan.

Boltaboy O‘rozaliyev – Namangan rayoni, Qizilrovot qishlog‘idan. Millati qirg‘iz. Tabiblik qilgan, uylangan, sudlanmagan.

Esonboy O‘razaliyev – Qizilrovot qishlog‘idan. Qirg‘iz millatiga mansub. Olti yil imomlik qilgan. Dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Uylangan, savodli, sudlanmagan. Bosmachilarning yordamchisi sifatida Nosirxonto‘ra va Istambekning jinoiy faoliyatlarini bilgan holda ularning ta’qibdan qochishiga yordam bergan. O‘zSSR JK 14–78-moddasida ko‘zda tutilgan jinoyatlarni sodir etishda ayblangan.

Uzoqboy Lolaqoriyev – Kosonsoy rayoni, Rovot qishlog‘idan. Qipchoq. Dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Uylangan, sudlanmagan. Bosmachilarga yordam bergan va Nosirxonto‘raning jinoiy faoliyatidan xabardor bo‘lgan holda uni oziq-ovqat va yem-xashak bilan ta’minlagan. O‘zSSR JK 14–78-moddasi bo‘yicha ayblangan.

Akbar hoji Abduvahhobov – Namangan rayoni, Qizilqiya qishlog‘idan. Millati o‘zbek. Ipakchi hunarmand, uylangan, sudlanmagan.

Mulla Mo‘min Rustamov – Kosonsoy rayoni, Qizilrovot qishlog‘idan. Nosirxonto‘raning shogirdi, sobiq imom. Dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Nosirxonto‘ra va uning yordamchilarining yashirinishiga yordam bergan. O‘zSSR JK 14–78-moddasida ko‘zda tutilgan jinoyatlarni sodir etishda ayblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).

TARMOQLARDA NIMA GAP?



“Buvi va nabira”. O‘zbekiston xalq rassomi Abdulhaq Abdullayev. 1960-yil.

KATTALAR IBRATI

Bugun bir yumush bilan ko‘chaga chiqdim. Manzilimga yetib olish uchun yo‘nalishli taksiga o‘tirdim. Avtomobil salonini yoqimli va qimmatbaho atir hidi tutib ketgan, shofyor yonida o‘rtayosh, chiroyli ayol o‘tirar, bir gapirib o‘n kulardi.

– Eh, uka, qarang, mana siz ham sezdingiz atirimning hidi shirinligini, do‘kondagi sotuvchi yigit ham rosa kompliment qildi. “Qo‘g‘irchoqni bepulga olib ketavering, nabirangiz, buvi, deb murojaat qilmaguncha buvi ekaningizni ham sezmabman”, deydi-ya, tushmagur. Ha-ha-ha. Voy, kulgidan o‘zimni tiyolmayapman. Qayga borsak, odamlarni lol qoldirib yuramizda, to‘g‘rimi, Lolajon, – deya orqa o‘rindiqqa o‘girilganidagina mendan biroz nariroqda qo‘g‘irchoq ushlab o‘tirgan qizaloqni ko‘ribman.

Boshim shunchaligam aylanib qoladimi, a? Orqa o‘rindiqqa chiqib, yonimdagi 4-5 yashar qizchani sezmasam-a? Taajjublanishga ulgurmasimdan bir payt qizaloq tilga kirdi:

– Mani buvim – eng go‘zal ayol. Ular bilan birga yursam hamma amakilar shunday deyishadi. Sochlari chiroyli, yuzlari tiniq. Manam katta bo‘lsam shunaqa go‘zal bo‘laman. Buvim-chi, maniyam salonga olib boradilar...

To‘g‘risi, nima deyarimni bilmay lol edim. Yo‘l uzoqligigami, bir gapirib o‘n kulayotgan ayol, tinimsiz xushomad qilayotgan taksichi, kichkinagina orzulari bir olam qizaloqning gaplari go‘yo uzoqdan kelayotgandek eshitilar, ko‘z o‘ngimda o‘zimning 4-5 yashar paytlarim gavdalana boshladi.

...Buvim qayergadir otlanayotganlarini ko‘rib, men ham ergashdim. U yonlaridan o‘tdim, bu yonlaridan. Axiyri, ko‘ndilar.

– Keling, birinchi siz kiyining unda (buvim nimagadir bizni “siz”lab gapirardi), – deb ko‘ylagimni olib chiqdilar. Birinchi kiyinib olganimgami, endi sabrsizlik bilan buvim tayyor bo‘lishini kutardim. Kutganim sari, vaqt sekinlashganday bo‘lardi. Buvim atayin bitta-bitta kiyinar, men esa betoqatlik bilan kutardim.

Buvim shoshilmaygina o‘zlari tikkan, keng bichimli, yengi va etagi uzun, tik yoqali ko‘ylaklarini oldi. Oyoqlariga mahsi kiyib, ko‘ylak ustidan nimcha tashlagach, boshlaridagi uyda o‘rab yurgan kichik ro‘mollarini yechib, ko‘chalik kichik ro‘molni orqadan bog‘lab o‘radilar. Keyin undan biroz kattaroq ro‘molni iyagidan bog‘lab, ustidan doka ro‘mol, uni ustidan esa katta to‘rtburchak yalakni tashlab oldilar.

Men uchun asrlarday cho‘zilgan kiyinish marosimi tugagach, yo‘lga tushdik. Yo‘l-yo‘lakay, buvim, erkak kishiga ko‘zim tushsa, ogohlantirishimni bir necha marta takrorladi. Bir payt bizga qarama-qarshi tomondan ikkita erkak kelayotgani ko‘rindi.

– Buvi, ikkita erkak kelyapti, – dedim asta pichirlab. Buvim o‘sha zahoti qo‘limdan tutib bir chetga tortdilar-da, yalaklari uchini qo‘llari bilan ko‘tarib, yuzlarini pana qilgancha, yo‘l chetidagi devor tomon o‘girildilar. Shu bo‘yi, boyagi erkaklar bizga yaqinlashib kelib, yo‘lning narigi chetidan o‘tib, 15-20 qadam uzoqlashmagunicha kutib turdik.

– Buvi, nimaga ulardan yashirinib turdik o‘zi? Ular yomon odammi? – deb bidirlay ketdim.

– Ha yo‘g‘-a, bolam. Shunchaki, begona erkakni ro‘parasida qadam bosish noqulay. Shunga chetga chiqib tura qoldim. Bu – bizning odobimiz, bolam. Qachon, ro‘parangizdan erkak kishi chiqib qolsa, unga qarab tik yurmang. Bir chetga o‘tib turing, o‘tib ketsin. Keyin bemalol ketaverasiz, – deb erinmay nasihat qildi. Shu alfozda yo‘l bo‘yi erkak kishi uchrasa, orqa o‘girib to‘xtab, o‘tib ketsa, yurib manzilimizga yetdik.

Buvimning o‘gitlariga hayotim davomida qanchalik amal qila olyapman, bilmadim. Ammo, buvimni eslasam shirin erkalashlari, har gaplariga maqol qo‘shishlari, g‘aroyib hikoya-yu rivoyatlari quloqlarimda jaranglaydi. Xokisorlik bilan qadam tashlashlari ko‘z o‘ngimda gavdalanadi.

Yonimdagi qizaloq-chi? Balki u buvisining hozirgi harakatlarini takrorlar, balki yo‘q. Lekin uning xotirasida buvisi xuddi shu holda qolishi aniq. Bu yaxshimi yoki yomon? Bilmadim... Bilmadim...

Gavhar NASRULLOH,
Facebook

MULOHAZA

“PSIXOLOGIK KINDIK”

yoxud bolalarning ota-onaga ko‘r-ko‘rona qaramligi maqbulmi?



Tahririyatimizga murojaat qilgan qahramonimiz boshidan o‘tganlarini hikoya qilib, arzimagan gap-so‘zlar, maishiy muammolar bilan oilalar buzilayotgani, bolalar tirik yetim qolayotgani haqida yozishimizni iltimos qildi. Uning aytishicha, qaynonasi turmushlarini buzgan. Eri onasining qistoviga ko‘ra u bilan ajrashishga majbur bo‘lgan. Vaziyatni to‘liqroq tushunish, yoritish uchun qolgan ikkala tomon bilan telefon orqali bog‘landik.

SHAHODAT (kelin):

– Shu oilaga kelin bo‘lib tushganimdan buyon inson bolasiga qilinadigan muomala, mehr-shafqatni ko‘rmadim. Aslida hamma muammolar to‘ydan oldin boshlangan edi. Bo‘lg‘usi qaynonam urush-janjal bilan ota-onamga keraksiz sarpolar qildirgan. Tekinga kelgan mebel-u gilam, pardalar yoqmay: “Orzu-havasingiz yo‘qmi?” deya hatto to‘yimiz kuni ham ayyuhannos solgandi. Kuyov bo‘lmish esa mum tishlab sukut saqlagan. To‘y o‘tgach hammasi iziga tushib, “ko‘rmagandek” bo‘lib ketishimga ishongandim. Qolaversa, onam nuqul boshqalarni misol keltirib, ularda ham shunday bo‘lganini, to‘y arafasida ikki tomon janjallashishi tabiiy hol ekanini takrorlardi. Afsuski, kutganimday bo‘lmadi. O‘tirsam o‘poq, tursam so‘poq – biror qilgan ishim qaynonamga yoqmasdi. Hovli supursam ham ularning ko‘ngli to‘lmagani uchun ikki qayta supurardim. Yillar shunday o‘taverdi, ikki farzandli bo‘lib ham o‘zimdan tinmadim, kunda-kunora onamnikiga ketardim. Ovqatim qaynonamga yoqmagani, ishlarga vaqtida ulgurmaganim, bolalarimga ko‘p vaqt ajratganim, onam yig‘inlarga yaxshi dasturxon qilib kelmagani uchun tez-tez janjal bo‘lardi. Qaynonam nuqul o‘zi kelin qilmoqchi bo‘lgan qizlarni maqtab gapirar, meni pastga urardi, “baribir yashashga qo‘ymayman”, derdi. Turmush o‘rtog‘im bir-ikki marta aralashgan, ammo foydasi bo‘lmagan. Aslida, u onasining chizgan chizig‘idan chiqolmasdi, xuddi yosh go‘dakday tobe edi. Eng alamlisi unga hamma narsa baribir – ajrashsa ham, yashasa ham farqi yo‘q. Bir kuni qaynonam uyda bo‘lmagani uchun xo‘jayinimdan ruxsat olib onamni ko‘rishga bordim. Shu bahona bilan haydab yuborishdi. Bu safar qaytib bormadim, o‘zlari olib ketishini kutdim. Oradan bir hafta o‘tar-o‘tmas erim boshqasiga uylanayotganini eshitdim. Qaynonam hatto, kiyim-kechaklarimni ham bermadi. Turli nayranglar bilan aliment miqdorini ham kamaytirgan. Bolalarimni tirik yetim qildi. Oilalarni sababsiz ajratib yuboradiganlarga ham jazo bormikan qonunda?

BOTIR:

– Boshi berk ko‘chaga kirib qoldim. Bir tomondan MIB to‘lanmagan aliment qarzlarini qistasa, bir tomondan onam bu kelinidan ham ayb topgani-topgan. Bolalarimni juda sog‘inaman. Aslida Shahodat bilan ham yomon yashamayotgandik. Biror marta so‘zimni ikki qilmagan. Faqat onam bilan til topisholmadi. Ko‘cha-ko‘yda ham bosh ko‘tarib yurolmay qoldim. Oshna-og‘aynilarim “bolalaringni yetim qilishga uyalmaysanmi”, deydi. Axir onam: “Yo xotiningni, yo meni tanla. Talog‘ini bermasang, oq qilaman, bergan sutimga rozimasman”, deb shart qo‘ydi. Shu paytgacha onamning aytganini qilib kam bo‘lmadim. Qanday qilib, volidamga oq bo‘laman. Axir u dunyo-yu bu dunyom kuyib ketadi-ku!

QAYNONA:

– Teng-tengi bilan – tezak qopi bilan, deb bekorga aytishmagan ekan. O‘zi boshidan o‘sha ivirsiqqa ko‘nglim chopmagan. O‘g‘limga yoqdi-ku, o‘zimga o‘xshatib tarbiyalab olaman, deb o‘ylagandim. Besh yilda ham o‘zgarmadi. Imillab ish qiladi, na ovqatida maza bor, na qilgan ishida unum. Indamasang kun bo‘yi bolaga qaraydi. Biz ham bola boqqanmiz. Erta-yu kech bolalar bog‘chasida ishlab, o‘zimiz yemay-ichmay ming mashaqqat bilan katta qildik. U jonivor uyim-joyim deydiganlardan emas. Erining topganini ko‘chaga sovuradi. Kunda onasinikiga qatnaydi, onasi gap o‘rgatib, xayolini buzadi. Mana endi bemalol o‘tiraversin onasining oldida. Qarindoshlar: “Aralashmang, ikki yosh bir-birini tushunsa bo‘ldi”, deydi. Nega endi indamay qo‘yaverarkanman, bekorga o‘g‘il boqib, katta qildimmi? Kelin, avvalo, menga yoqishi kerak. O‘g‘lim bilan yashash-yashamasligini men hal qilaman. Kerak bo‘lsa, yana uylantiraman.

Fanda “psixologik kindik” atamasi mavjud. Bu ota-ona va farzand o‘rtasidagi ruhiy, hissiy bog‘liqlikni, qaramlikni anglatadi. Bola tug‘ilganidayoq, kindik kesiladi va onadan ajraladi. Yetuk shaxsni tarbiyalash uchun “psixologik kindik”ni ham go‘daklikdayoq uzish zarur. Aks holda, dilbandimiz o‘z fikriga ega bo‘lmagan, hayotda o‘rnini topolmaydigan inson bo‘lib ulg‘ayadi. Xalqimizda azal-azaldan ota-onaning ko‘ziga tik boqmaslik, so‘zini ikki qilmaslik kabi qadriyatlar shakllangan. Ammo o‘g‘il-qizlarni qulday boshqarish, manqurt qilib tarbiyalash an’ana emas, aksincha bizga begona bo‘lgan qabihlik, johillik, kaltafahmlikdir. Siz-chi, siz qanday fikrdasiz, aziz gazetxon?

Muyassar IBROHIMOVA

TILBILIM

LO‘KILLASH yoki TUYAYURISH

Bir oliy o‘quv yurtida magistrlardan imtihon olayotganimda nuqul aravani quruq olib qochadigan yigitga duch keldim. Nimani so‘rasam, tunukaning shaqir-shuquridan boshqa javob yo‘q.

Oxiri, unga shunday bir savol berdim:

– Mayli, bu oldi-qochdi gaplaringni qo‘ygin-da, juda oddiy bir savolimga javob ber. Familiyang Lukchayev ekan. Xo‘sh, bobongning ismini ma’nosi nima?

– Bobomning ismi... – tap tortmasdan yana dadillik bilan javob bera boshladi yigitcha, – bobomning ismining ma’nosi ruschadagi luk so‘zidan. Piyoz degani. O‘sha paytlarda ruslar ta’siri kuchli bo‘lgani uchun Lukcha deb nom qo‘yishgan.

– Demak, sen Piyozchayev ekansan-da?! Nima ajdodlaringda ruslarga aloqasi bor momo-bobolardan bormidiki, otini ruscha Luk, qo‘shimchasini o‘zbekchasiga -cha deb qo‘yishsa.

– Yo‘q, bizning avlodda rus bo‘lmagan. Lekin bobomning ismini ruscha qo‘yishgan.

Shundan keyin unga “sen Lukchayev emas Lo‘kchayevsan, Norchayev deganday, shu paytgacha o‘z familiyang bilan qiziqib ham ko‘rmaganing meni hayron qoldirdi”, deb lo‘kcha so‘zining ma’nosi mana bunday, ana unday deb uzoq tushuntirdim. Niyatim: hech bo‘lmasa, bu magistrgina bola bobosining otini bilib ketsin. Yo‘q, nazarimda u menga ishonmadi. Balki u quyida yozganlarimni o‘qir yo o‘qimas. Lekin mening



vazifam, baribir, ko‘nglimdagi gapni aytib qo‘yish.

Lo‘killab yurish – qadamini katta tashlab, lopillab yurmoq degani. Ba’zan ovora bo‘lib yurish ham shu so‘z bilan ma’nolanadi. Xo‘sh, nima uchun lo‘killab deymiz? Bu so‘z qanday paydo bo‘lib qolgan? Men avval “Lukov va Idiyevga salom” degan maqolamda lo‘k so‘ziga to‘xtalgan edim va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘zning ma’nosi quyidagicha sharhlanganini keltirib o‘tgandim: LO‘K (f. Kalta yungli, yuk tashuvchi tuya) Boshi kichikroq bo‘yni uzun bir o‘rkachli katta tuya, yetakchi tuya.

Menimcha, lo‘killab fe’lining paydo bo‘lishi ham tuya ma’nosidagi lo‘k so‘ziga borib taqaladi. Tuya lo‘killab yuradi. Shu ma’noda, lo‘killashni “tuyayurish” deb izohlash mumkin. Aslida lo‘killab yurish ko‘proq ot, tuya, eshakka xos. Ba’zi odamlarning qadam tashlashida lo‘killash borligi uchun bu sifat odamga ham ko‘chgan.

“Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”da lo‘k so‘ziga quyidagicha izoh berilgan: 1. Yo‘g‘on gavdali, qo‘pol. 2. Og‘ir. 3. Yuk tashiydigan taqir yungli tuya.

Shuningdek, “Farhangi zaboni tojik”da lo‘k so‘zi tuya ma’nosidan tashqari haqir, zabun, mayib ma’nolarini anglatishi haqida ham aytib o‘tilgan.

Qolaversa, “Alpomish” dostonimizda shunday satrlar bor:

Nomusi bilan oringiz,
Qatorda lo‘kcha noringiz.
Sag‘irga o‘tibdi
zo‘ringiz,
Yurakdan chiqdimi
cheringiz,
Qulluqlar bo‘lsin-ey,
to‘rajon-ey,
Bir marddan qolg‘anay
yoringiz.

Eshqobil SHUKUR

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5 867
Lotin yozuvidagi adadi – 11 914
Media kuzatuvchilar – 19 015
Buyurtma: G – 940.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:30
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz